

Eshmuratov R.A., Ajiev A.B.

# QORAQALPOG'ISTON DORIVOR O'SIMLIKLARI



«Tafakkur avlodi»  
nashriyoti



**UO'K: 633.88(075.8)**

**KBK: 42.143ya73**

**E 73**

**E 73 Eshmuratov R.A., Ajiev A.B.**

**Qoraqalpog'iston dorivor o'simliklari [Matn]:**

monografiya / R.A.Eshmuratov, A.B.Ajiev – Toshkent:  
«Tafakkur avlodi», 2020. – 72 b.

Monografiyada Qoraqalpogistonning dorivor o'simliklari, ularning ayrim turlarining ilmiy, ruscha va mahalliy nomlari, dorivor maxsulot sifatida qo'llaniladigan qismlari, kimyoviy tarkibi va ishlatilishi haqida qisqacha umumlashtirilgan ma'lumotlar hamda dorivor o'simliklardan oqilona foydalanish, ularni muhofaza etishga doir ma'lumotlar keltirilgan.

Ushbu monografiyadan dorivor o'simliklarga qiziqqan har bir kishi foydalanishi mumkin.

**Mas'ul muharrir:**

**M.Baltabaev** – Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti Botanika, ekologiya va uni o'qitish metodikasi kafedrasida dotsenti, biologiya fanlari nomzodi.

**Taqrizchilar:**

**A.Saitova** – Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti Dorivor o'simliklar introduksiyasi va agroekologiyasi kafedrasida mudiri, b.f.n., dotsent.

**F.Otenova** – Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti Botanika, ekologiya va uni o'qitish metodikasi kafedrasida dotsenti, biologiya fanlari nomzodi.

**Monografiya Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika Instituti  
Kengashi qarori (24-iyun 2020-yilgi №11) bilan  
nashrga tavsiya etilgan**

**ISBN 978-9943-6897-2-5**

**© Eshmuratov R.A., Ajiev A.B.**

**©«Tafakkur avlodi», 2020**

## KIRISH

Qoraqalpog'iston o'zining go'zal tabiati, undagi o'ziga xos rang-barang o'simliklari dunyosiga ega. Qoraqalpog'istonda 360 ga yaqin xalq tabobatida ishlatiladigan dorivor o'simlik turlari bor. Shulardan 200 turidan ko'prog'i ximiyaviy farmatsevtika zavodlari uchun xomashyo sifatida foydalaniladi (Dauletmuratov va boshqalar, 1992-y.).

Iqlimning o'zgarib turishi tirik tabiat vakillarining rivojlanishiga, o'z ta'sirini ko'rsatib kelganligidan, o'zgargan sharoitga moslasha olgan flora vakillari tez rivojlangan bo'lsalar, moslasha olmagan turlari yoki ularning ayrim vakillari sharoitning salbiy ta'sirlaridan nobud bo'lib, yo'qolib ketishgan.

Bizning Qoraqalpog'iston sharoitida ham Orol dengizi suvining qaytishi oqibatida ekologik ahvol ancha keskinlashdi. Orol muammosi butun dunyoga ma'lum bo'ldi. Sababi, orol dengizining sathi 1960-yilga qaraganda 16-20 metrgacha tushdi. U hozir o'zining baliqchilik va transport xo'jaliklariga kerakli bo'lgan ahamiyatli hususiyatlaridan to'la ajraldi, o'zining orolbo'yi regionlari uchun ob-havoning tabiiy taqsimlovchilik hususiyatlarini ham batamom yo'qotdi (Baxiev va boshqalar, 1995-y.).

Dengiz suvlari tuzliligi uch hissa oshdi, qurib qolgan dengiz sathi 3,5 ming kvadrat kilometrga etdi, u tuzli chang-to'zon hosil qiluvchi maydonga aylandi. Bu tuzli chang-to'zonlar faqatgina Orol bo'ylarinigina emas, balki qo'shni mamlakatlar tabiatini ham zararlamoqda.

Hozirda Qoraqalpog'istonda yashovchi aholining 70 %i har xil kasalliklar bilan kasallanmoqda. Ayniqsa so'nggi yillari oshqozon-ichak, buyrak, qon tomirlari va nafas organlari kasalliklari hamda turli yuqumli kasalliklar soni bir qancha oshdi (Baxiev va boshqalar, 1995-y.). Bu kabihodisalarning oldini olish maqsadida Orolbo'ylariga chang-to'zonlarni tutib qolish uchun turli o'simlik turlari o'tqazilmoqda. Shuni alohida ta'kidlab o'tish kerakki, yuqorida ko'rsatilib o'tilgan kasalliklarni davolash va oldini olish maqsadida so'nggi yillari dorivor o'simliklar preparatlaridan foydalanish ancha ijobiy natijalarga

olib kelmoqda. Buning uchun albatta bunday kasalliklarni davolashda o'sha erda o'suvchi tabiiy dorivor o'simlik turlaridan keng foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Bizga ma'lumki, Odam va hayvonlarda uchraydigan kasalliklarni davolash xamda shu kasalliklarning oldini olish maqsadida ishlatiladigan o'simliklar dorivor o'simliklar hisoblanadi. Kasalliklarni davolash uchun ishlatiladigan dorivor o'simliklardan odatda dorixona, farmatsevtika zavodlari va fabrikalari, laboratoriyalarda yoki uy sharoitida bir qator dori preparatlari tayyorlanadi yoki ulardan dori tayyorlash uchun sof holda kimyoviy birikmalar-o'simliklarning biologik aktiv moddalari ajratib olinadi.

Darhaqiqat juda ko'p o'simlik turlari shifobaxsh ya'ni dori-darmonlik hususiyatiga ega. O'simliklar shunday bir murakkab tuzilishga ega bo'lgan tabiiy laboratoriyadirki, soddadan g'oyat murakkab organik moddalarni, ya'ni biologik aktiv moddalarni sintez qilish hususiyatiga ega.

O'simliklardagi biologik aktiv moddalarning soni miqdori hamda sifati ularning shifobaxshlik hususiyatlarini belgilashda eng muhim omillardan hisoblanadi.

Dorivor biologik aktiv moddalarni o'zida saqlovchi shifobaxsh o'simliklarning O'rta Osiyo hududida 500 dan ortiq turi qadimdan turli kasalliklarni davolashda, oldini olishda qo'llanilib kelinadi. Ayni vaqtda ilmiy tibbiyotda ularning 100 turidan ortiqrog'idan keng ko'lamda dori preparatlari ishlab chiqarilmoqda (Xolmatov, Qosimov, 1994-y.).

Lekin dorivor o'simliklarga bo'lgan ehtiyojning tabora oshib borishi, ularni ko'plab tayyorlash, ertami kechmi har qanday foydali o'simlikning yo'qolib ketishiga olib keladi.

Bu o'rinda Qoraqalpog'iston Respublikasida ham yo'qolish havfi ostida bo'lgan kamyob o'simlik turlari yaxshilab o'rganilib xalq va ilmiy tabobatda iloji boricha samarali va ijobiy ta'sir kuchiga ega dori preparatlarini tayorlashda, ulardan ehtiyotkarona va oqilona keragicha kichik dozalarda, ya'ni "Gomeopatiya" o'xshashlik qonuniga amal qilingan holda, o'simliklar zahirasini saqlab qolib, ular sonini ko'paytirish

borasida ishlar olib borishni oldimizga maqsad qilib qo'ydik va shu kabi yo'llar bilan odamlarni kimyoviy sintetik dorilar bilan davolash oqibatida sodir bo'ladigan turli noxushliklar, jumladan har xil allergiyalar, shoklar, zaharlanishlar, turli darajadagi asoratlar oldi olinadi.

Hozirgi paytda insonlarning bilib-bilmay o'simliklar zahiralardan foydalanishi, isrofgarchiliklarga yo'l qo'yilishi natijasida dorivor o'simliklar zahiralarning tobora kamayib yo'q bo'lib borayotganligini ko'rishimiz mumkin. Shu sababli ham ushbu ishga keng omma e'tiborini qaratish, qolaversa shifobaxsh dorivor o'simliklardan oqilona foydalanish va muhofaza qilish maqsadida havaskor dorishunoslarga quyidagilarga rioya etishni taklif etamiz. Asosan:

1. Dorivor o'simliklardan oqilona foydalanish maqsadida ularni aniq bir-biridan ajrata olgan holda yig'ishtirish;

2. Muhofaza qilishda ularning tur soni o'sish joyi va muhitlariga alohida e'tibor berish;

3. Dorivor o'simlik preparatlarining sintetik dorilardan afzalliklarini namoyon qila olish va bunga xalqni ishontirish;

4. Xalq tabobatidagi davolash vositalari va usullarini ommaga tadbiq qilish va shu kabi bir qator masalalarni hal qilish.

## **1. BOB. QORAQALPOG'ISTON FLORASINING O'RGANILISH TARIXI**

Qoraqalpog'iston Respublikasi Turon pasttekistligida joylashgan bo'lib, Janubiy-g'arbi Qoraqum, Shimoliy-sharqi Qizilqumning bir qismini o'z ichiga qamrab, Shimoliy-g'arbi Ustyurt pasttekistligining sharqiy qismi bilan chegaralangan. Yana u o'z tarkibiga Amudaryoning quyi oqimini hamda Orol dengizining Janubiy qismini ham oladi. Qoraqalpog'istonning er maydoni O'zbekiston Respublikasi umumiy er maydonining 1/3 qismiga teng. Ammo floristik tarkibi O'zbekistonning boshqa viloyatlariga nisbatan kamroqdir. Bunday deyishimizga asosiy sabablardan Qoraqalpog'istonning og'ir iqlim sharoitining keskin o'zgaruvchanligi va tuproq tuzliligining (sho'rliligining) yuqori bo'lishligidir.

Shunga qaramasdan Qoraqalpog'istonning ham shu sharoitlariga moslashib yashab kelayotgan o'simliklari qoplami mavjud. Masalan, janubiy Ustyurtda yuksak darajali gulli o'simliklarning 306 turi (Kogan 1954), Janubi-Sharqiy Ustyurtda 724 (Saribaev, 1978), Ustyurtning Qoraqalpog'iston bo'limida 402 (Koibagarov, 1973), Qoraqalpog'iston Ustyurti tabiiy rayonida 531 tur (Sherbaev, 1988) yuksak o'simlik o'sadi. Shimoli-g'arbiy Qizilqumda 830 tur (To'remuratov, 1978), ajralib qolgan balandliklar va kichik tog'larda 506 tur, shundan Sultonuvays tog'ida 449, Qushxonatog'da 251, Beltog'da 211, mayda ajralgan tepaliklarda 28 tur (Sherbaev, 1978), Amudaryoning quyi oqimidagi ko'llarda 118 tur (Tajetdinov va boshq., 1972), Orol dengizining suvdan bo'shagan hududlarida 135 tur (Sherimbetov, 2009) yuksak darajadagi o'simliklar o'sadi.

Qoraqalpog'istonning umumiy hududida 964 tur (Flora Uzbekistana I-II tomlar), 874 tur (Bondarenko, 1964), 876 tur (Erejepov, 1978) o'simliklar olimlar tomonidan turli manbalarda qayd etib o'tilgan.

B. Sherbaevning (1982) ma'lumotlari bo'yicha 1103 tur, Karovina va boshqalar-ning (1982-1983) ma'lumotlariga ko'ra 979 tur va keyingi tadqiqotlarda Qoraqalpog'iston florasida 1110 tur (Sherbaev, 1988) yuksak darajadagi o'simliklar borligi keltirib o'tilgan.

Qoraqalpog'iston florasida uchun olimlar tomonidan adabiyotlarda dorivor o'simlik-larning soni turlicha keltirib o'tiladi. Masalan, S.E.Erejepov tomonidan (1971) 228 tur, B.Sherbaev tomonidan (1988) 250 tur, P.Xalmuratov tomonidan (1992) 360 tur deb ko'rsatilgan.

Shunday qilib, yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki Qoraqalpog'iston-ning umumiy er maydonida o'suvchi o'simliklarning qariyb 1/3 qismi dorivorlik hususiyatlariga egadir. Lekin ayrimlari zaharli hamdir. Masalan, kuchala, isiriq, Turkiston adonisi (sariqgul), achchiqmiya (eshakmiya), qizilcha (efedra) va boshqalar zaharli o'simliklar hisoblanadi. Lekin shu bilan birga bir qancha ovqatga ishlatiladigan o'simlik turlaridan shifobaxsh vosita sifatida foydalansa bo'ladi va foydalanib kelinadi ham. Quyidagilarni bunga misol qilib keltirish mumkin: anor, o'rik, behi, kashnich, garimdori, zig'ir, sarimsoq piyoz, murch va boshqalar.

O'simliklarning ko'pchiligi zaharli bo'lmagan biologik faol moddalar saqlovchi va turli kasalliklarni davolash uchun qo'llaniladigan shifobaxsh hususiyatlarga egadir.

Qadim zamonlarda odam o'zini yomon sezgan, kasallangan, yaralangan, shikastlangan hollarda dardiga davoni atrofdagi bor narsalardan, ehtimol, birinchi galda o'simliklardan izlagandir va ularning birortasidan foydalangandir. Axir hozirgi davrda ham biror hayvon kasallikka chalinsa davoni o'simliklardan topishini hammamiz bilamiz. Shunisi qiziqki, kasallikdan holi bo'lgan hayvon keyinchalik (boshqa sog'lom hayvonlar ham) shu o'simlikni qayta iste'mol qilishmas ekan. Masalan, Eski zamonlarda Buryat ovchilari jarohatlangan kiyiklar qizil chinnigulni eyishga talpinganlarini sezib qolganlar. Aniqlanishicha, mazkur o'simlik tarkibida qon to'xtatish hususiyatiga ega bo'lgan moddalar bor ekan. Suruvda bo'lgan

qo'ylar juda achchiq ermonni zo'r ishtaha bilan eyishayotganligini ko'rgan cho'ponlar ermon giyohining gijja haydash xosiyatidan xabardor bo'lishgan ekan.

Xullas, xalq tabobatida qo'llaniluvchi minglarcha amallar hayotdan olingan uzoq kuzatish va tajribalar zaminida vujudga kelgan deb aytish mumkin. Demak, ibtidoiy (eng burungi) odam ham o'z kasalini ongsiz yoki ongli ravishda o'simlik va uning organlari bilan davolay boshlagan. Shunday ekan, o'simliklarni dorivor vosita sifatida inson tomonidan qo'llanish tarixini o'sha davrdan, inson o'zini birinchi marta o'simlik bilan davolagan vaqtlardan boshlab hisoblash kerak.



## **2. BOB. QORAQALPOG'ISTONNING DORIVOR O'SIMLIKLARI**

Bizga ma'lumki, odam va hayvonlarda uchraydigan kasalliklarni davolash hamda shu kasalliklarning oldini olish maqsadida ishlatiladigan o'simliklar dorivor o'simliklar hisoblanadi.

Respublikamizda 1921-yildan e'tiboran shifobaxsh o'simliklarni o'rganish, ulardan foydalanish va sanoat miqyosida ekinga aylantirishning tadbiriy choralarini ishlab chiqishga juda katta e'tibor berila boshlandi. Chunki ana shu yili "Dorivor o'simliklarni yig'ish va ekinga aylantirish" to'g'risida maxsus dekret e'lon qilingan edi.

1931-yilda tashkil etilgan Butunittifoq ilimiy-tadqiqot dorivor o'simliklarni o'rganish institutining zimmasiga shifobaxsh o'simliklarni har taraflama ilmiy asosda o'rganish, hususiyatlarini aniqlash, foydalanish usullarini, dori-darmonlar tayyorlash texnologiyasini yaratish, noyob va qimmatbaho xomashyo manbai hisoblanadiganlarini ekinga aylantirishning tadbiriy choralarini ishlab chiqarishga joriy etish bilan shug'ullandi.

Bugungi kunda MDH hududida uchraydigan 20 000 tur yuksak o'simliklarning 2500 turi dori-darmonlik hususiyatiga ega ekanligi aniqlanilgan bo'lib, ulardan 250 turga yaqini ilmiy tabobatda keng qo'llaniladi. Hozirgi kunda 50 turli dorivor o'simlik ekinga aylantirilgan (Xojimatov va boshq., 1994).

O'zbekiston o'simliklarining 600 turining dori-darmonlik hususiyati aniqlanilgan bo'lib, ulardan 50 turi ilmiy tabobatda ishlatilmoqda (Xojimatov va boshq., 1994).

Qoraqalpog'iston dorivor o'simliklarining asosiy oila vakillarining qaysi hududda qancha uchrashi, ularning turli ekologik hududda tarqalishi va tur sonlari quyidagi 1-jadval orqali ko'rsatilgan:

1-jadval

**Qoraqalpog'iston dorivor o'simliklarining asosiy oilalarining tabiiy ekologik hududlarda tarqalishi (N.Mamutov ma'lumoti 2003-y.)**

№	Oilalar	Ekologik hududlar		
		Amudaryo	Qizilqum	Ustyurt
1	<i>Asteraceae (Compositae)</i> Slojnotsvetnie Murakkabguldoshlar	14	6	17
2	<i>Poaceae-Zlaki</i> Bashoqdoshlar	11	4	13
3	<i>Chenopodiaceae-</i> Marevie Sho'radoshlar	16	4	18
4	<i>Fabaceae-Bobovie</i> Dukkakdoshlar	13	6	14
5	<i>Brassicaceae-</i> Krestnotsvetnie Karamdoshlar	10	2	14
6	<i>Polygonaceae-</i> Grechishnie Torondoshlar	9	2	11
7	<i>Rosaceae-Rozovie</i> Atirguldoshlar	8	4	10
<b>Jami</b>		<b>81</b>	<b>28</b>	<b>97</b>

**2.1. Qoraqalpog'istonning tabiiy dorivor o'simliklari**

Qoraqalpog'iston hududida o'suvchi barcha o'simliklar dunyosining asosiy qismini tabiiy holda o'suvchi yovvoyi yuksak o'simliklar tashkil etadi. Bunday o'simliklar o'zlarining ekologik-geografik tarqalishiga ko'ra: Ustyurt, Qizilqum, Quyi Amudaryo oqimi hamda Orolqum o'simliklari qoplami bo'lib ajratiladi. Bunday ajratish bizlarga ushbu hududlarda tarqalgan o'simlik turlarini aniqlash va tekshirishda katta imkoniyatlar yaratib beradi.

Ustyurtning Qoraqalpog'iston bo'limi o'z ichiga Orol dengizi bilan Kaspiy dengizi oralig'idagi keng hududni olib, Qozog'iston va Turkmanistonning G'arbiy hududlari bilan chegaralangan. Umumiy er maydoni 7,5 mln gektar. Bu hudud Sharqdan Orol dengizi, Janubi-Sharqdan Turkmaniston bilan chegaralanib, Janubi-G'arbdan Sariqamish ko'lining Shimoliy qismini o'z ichiga olgan.

Ustyurt – bu o'ziga xos baland tekislik, Orol dengizi tarafdin Sharqiy qoyalar hosil qili chegaralangan. Ustyurt qirlari dengiz sathidan 100-300 m balandlikda joylashgan. Ustyurtda turli xil chuqurliklar, qurib qolgan ko'llar va aqir maydonlar ko'p. Shuning bilan birga Aspantay sho'rxoki va Borsakelmas tuz koni, Qorabovur balandliklari joylashgan. Iqlim sharoiti keskin kontinental, yozi issiq, qishi sovuq bo'lib keladi. Eng sovuq kunlari yanvar oylariga to'g'ri kelib  $-38-40^{\circ}\text{C}$  atrofida bo'ladi. Eng issiq kunlari iyul oyiga to'g'ri kelib  $+40 +45^{\circ}\text{C}$  gacha ko'tariladi. Yog'in-sochin miqdori yiliga 100-120 mm ga to'g'ri keladi.

Ustyurtni tabiiy geografik hamda floristik nuqtai nazardan quyidagi rayonlarga ajratiladi: Shimoliy Ustyurt floristik rayoni (187 tur), Ustyurtning sharqiy qirlari floristik rayoni (297 tur), Markaziy Ustyurt floristik rayoni (86 tur), Janubiy Ustyurt floristik rayoni (162 tur yuksak darajali o'simliklar tarqalgan). Ustyurtda o'simliklar qoplaminin tarqalishi tuproqning tarkibi bilan bog'liq.

Qoraqalpog'istonning Qizilqum bo'limi Shimoli-G'arbiy Qizilqum qumli platosi tarkibiga kiradi. Umuman Qoraqalpog'istonga tegishi qismi 3,5 mln gektar. Shimoli-G'arbiy Qizilqum qumli platosi katta tekislik maydon bo'lib, dengiz sathidan 75-100 metr balandlikda joylashgan. Sharqdan Orol dengizi bilan chegaralangan. Shimoli-Sharqdan va Sharqiy tomondan Qozog'iston va O'zbekiston Respublikalari bilan, G'arbidan esa Amudaryo deltasi bilan chegaralanadi. Hududda qoldiq tog'lardan Sultonuvays, Nurota, Beltog' deb ataluvchi tog'lar joylashgan.

Iqlimi quruq kontinental, yozi quruq issiq, qishi quruq sovuq. Maksimal temperatura +41 +45°C, minimal temperaturada -22 -28°C atrofida bo'ladi. Yillik yog'in-sochin miqdori 67-136 mm.

B.Sh.Sherbaev (1988) tomonidan shimoli-g'arbiy Qizilqum ikkita floristik rayonga ajratilgan: 1. Orololdi Qizilqumi floristik rayoni (211 tur); 2. Qoraqalpog'iston Qizilqumi floristik rayoni (456 tur yuksak darajali o'simliklar tarqalgan). Qizilqumning asosiy o'simliklari qoplami psammofit tipdaligi bilan xarakterlanadi.

Quyi Amudaryo bo'limi Qoraqum cho'li bilan Orol dengizi orasida joylashib o'z ichiga Amudaryoning qadimiy va hozirgi zamon deltasini oladi. Okrugni g'arbdan Ustyurt, janubdan Qoraqum, sharqdan Qizilqum va Sultonuvays tog'lari, shimoldan esa Orol dengizi o'rab turadi. Quyi Amudaryoning ushbu chegara orasidagi maydoni 46 ming kv km ni tashkil etadi.

Quyi Amudaryoda qish sovuq bo'lib, yanvarning o'rtacha harorati -4,5-7,6°C atrofida bo'ladi. Yiliga 79-108 mm yog'in tushadi.

Quyi Amudaryo okrugi tabiiy geografik hamda floristik nuqtai nazardan quyidagi rayonlarga ajratiladi: Orololdi oqimi floristik rayoni (302 tur), Quyi Amudaryo bo'ylari floristik rayoni (482 tur), Quyi Amudaryo qoldiq tog'lari floristik rayoni (Sultonuvays tog'ida 444 tur yuksak darajali o'simliklar tarqalgan). O'simliklari qoplami asosan mezofit hamda mezokserofit tipdaligi bilan xarakterlanadi.

Orol va Orolbo'yi tabiiy sharoiti inson xo'jalik faoliyati natijasida o'zgarishlarga tez uchrayotgan hududlar sirasiga kiradi. 1961-yildan boshlab dengiz sathining keskin pasayishi va chekinishidan bu hudud tabiiy sharoitida salbiy o'zgarishlar paydo bo'la boshladi.

Orol dengizining qurishi nafaqat tabiiy geografik, balki ijtimoiy-iqtisodiy, ekologik sharoitning o'zgarishiga va yomonlashishiga ham olib kelmoqda. Orol dengizi ikkita davlat (O'zbekiston va Qozog'iston) hududida joylashgan bo'lishiga qaramasdan, Orolbo'yiga O'zbekistonning Qoraqalpog'iston

Respublikasi va Xorazm, Navoiy, Buxoro viloyatlari, Qozog'istonning Qizilo'rda viloyati hamda Turkmanistonning Toshhovuz viloyati kiradi. Orolbo'yi qadimdan sug'orma dehqonchilik rivojlanib kelgan hududlardan biri bo'lib, uning asosiy qismi Amudaryo va Sirdaryo deltalariga to'g'ri kelardi. Orolning qurishi bu hududdagi qishloq xo'jaligi kompleksiga kuchli ta'sir etmoqda. Shular bilan bog'liq holda Orol dengizining oldingi yirik iqtisodiy ahamiyatining yo'qolishi aholi turmush darajasining pasayishiga va migratsiyasiga sabab bo'lmoqda.

Orol tabiiy geografik okrugi tekisliklar okrugiga mansub bo'lib, unga chegara sifatida 1960-yilgi dengiz qirg'og'i olinadi hamda unga sharqdagi dengiz yotqiziqlari tarqalgan hududlar ham qo'shib yuboriladi. Buni orografik chegara deb ham qabul qilish mumkin. Okrug 75 ming km dan ortiq maydonni egallagan holda ichki tuzilishi jihatidan bir xil emas. Shimoliy va janubiy qismlarida farqlar mavjud. Bular gipsometriyasida, yuzasining nishabligida, yoshida namoyon bo'ladi va ularning tahlili bu erda bir qator tabiiy geografik rayonlarni ajratishni taqazo etadi. Shuni hisobga olgan holda tuzilgan landshaft xartasini tahlil qilish asosida Orol tabiiy geografik okrugi doirasida qizilqum yoni, Shimoliy Sirdaryo delta yoni, Sharqiy Orolqum, Janubiy Amudaryo delta yoni, Markaziy Orolqum, G'arbiy Orolqum va Ustyurt yoni tabiiy geografik rayonlari ajratildi (R.Ibragimova, 2012).

Ilmiy manbalarni tahlil qilish natijasida Qoraqalpog'iston Respublikasi o'simliklari hayotiy shakliga ko'ra I.G.Serebryakov (1964) bo'yicha ishlab chiqilgan bo'lib, bunga ko'ra flora tarkibidagi 1110 tur o'simliklardan: daraxtlar – 2,05%, butalar – 8,54%, butachalar – 0,34%, yarim butalar – 5,23%, yarim butachalar – 0,68%, ko'p yillik o't o'simliklar – 37,24%, ikki yillik va bir yillik o't o'simliklar – 45,89% ni tashkil etadi. Shundan ko'rinib turibdiki Qoraqalpog'iston Respublikasi iqlim sharoiti bir va ikki yillik o't o'simliklar (45,89%) hamda ko'p yillik o't o'simliklari (37,24%) o'sishi va rivojlanishi uchun ancha qulay hisoblanar ekan. Respublika florasida (Raunkier bo'yicha) fanerofitlar – 10,59%, xamefitlar – 6,03%, kriptofitlar – 37,37%,

terofetlar – 45,89% ni tashkil qiladi. Respublikamiz o‘simliklari hayotida namlik va tuproq asosiy o‘rin egallaydi. Shunga asosan flora tarkibi tahlil qilinganida kserofitlar – 66,74%, mezofitlar – 27,44%, gignofitlar – 3,18 %, gidrofitlar – 2,61 % ni tashkil etishi ma’lum bo‘ldi.

Tuproq tarkibi bo‘yicha o‘simliklarning tarqalishi nihoyatda xilma-xil bo‘lib, galofitlar – 12,18 %, glikofitlar – 29,17 %, psammofitlar – 34,73 %, gipsofitlar – 10,36 %, efemer ham efemeroidlar – 12,98 % ga teng.

Tabiiy holda o‘sovchi dorivor o‘simliklardan nafaqat insonlar balki hayvonlar ham o‘z kasalliklarini davolashda foydalanadilar ular bilan oziqlanib o‘zlarini o‘zlari davolashadi.

Qoraqalpog‘iston florasida tabiiy dorivor turlar orasida har xil oila vakillarini uchratishimiz mumkin.

Qoraqalpog‘istonda tabiiy sharoitda uchrovchi halq tabobatida qo‘llaniladigan yovvoyi o‘simlik turlarining ayrimlarining kimyoviy tarkibi, ishlatilishi va qo‘llaniladigan organlari haqida ma’lumot 2-jadvalda keltirildi.

## 2-jadval

**Qoraqalpog'istonning tabiiy sharoitda o'suvchi ayrim dorivor o'simlik turlarining qo'llaniladigan organlari, kimyoviy tarkibi va ishlatilishi**

N <sup>o</sup>	Ilmiy nomi	Ruscha va mahalliy nomlari	Qo'llaniladigan qismi	Kimyoviy tarkibi	Ishlatilishi
1		3	4	5	6
1	<i>Aellenia</i> Ulbr.	Elleniya. Chogon.	yer ustki qismi.	Alkaloidlar, kumarinlar, limon kislotasi, flavanoidlar.	Chipqonda, Teri kasalliklarida, genekologiyada.
2	<i>Atraphaxis spinosa</i> L.	Kurchavka kolyuchaya. Tikanakli tuya butoq.	Ildizi, yer ustki qismi.	Flavanoid, alkaloid, dubil' moddalar, spinozid, tetragidrosiflavon, ramnopiranozid, glyukofuranozid lyuteolin metil efiri, 3,15% tannin, glyukoduronozil.	Isitmaga qarshi qo'llaniluvchi dori sifatida.
3	<i>Andrachne rotundifolia</i> C.A.Mey.	Andraxne krugfolistaya. Tanga yaproq.	Hamma qismi.	elim, 0,83%flavanoid, 0,2-0,8%andraxnin alkaloidi, aktokozan, 0,06-0,08%perforin, xallopin alkaloidi.	Yumshartuvchi dori sifatida oshqozon ichak kasalliklarida qo'llaniladi.

4	<i>Atriplex tatarica</i> L.	Lebeda tatarskaya. Tatar ko'kpagi.	yer ustki qismi, urug'i.	Kumarin, flavanoid, alkaloid, saponin va vitaminlar bor.	Sariq kasalligida, ich yurituvchi, siydik haydovchi, qustiruvchi dori sifatida.
5	<i>Artemisia</i> <i>skoparia</i> Waldst. et Kit.	Polin' metel'chataya. Qizil shuvoq.	Poyasi, yer ustki qismi.	Efir moylari, organik kislotalar, dubil' moddalar.	Nevrosteniya, uyqusizlikda va tinchlantiruvchi dori sifatida.
6	<i>Atraphaxis</i> <i>frutescens</i> (L.) C. Koch.	Kurchavka kustarnaya. Tuyasingir (Putaqli tuye puta).	Guli, bargi.	Alkaloidlar, dubil' moddalar, fenol karbon kislotalari, katexin, kempferol', kvertsetin, mirtsetin, glyukopiranozidlar.	Isitma, dizenteriya kasalliklarida va qon bosimini ko'taruvchi dori sifatida.
7	<i>Achillea</i> <i>nobilis</i> L.	Tisyachalstnik blagarodniy. Ming barg.	Poyasi	Axillein alkaloidi, efir moylari, vitaminlar-S, K, fitonsit, dubil' moddalar.	Bavosilda, jigar, bronx og'rishida, jarohatlarda qon to'xtatuvchi dori sifatida.
8	<i>Amaranthus</i> <i>retroflexus</i> L.	Amarant otognutaya. Qizil tojsimon gul.	Ildizi, bargi.	Amarantin, betain, izobetain, 0,96%azot birikmasi hamda betatsianin.	Sariq kasalligida va ich yurituvchi, bosh og'rig'ini qoldiruvchi dori sifatida.
9	<i>Ammothamnus</i> <i>lehmannii</i> Bunge.	Ammotamnus Iemena. Qizboltir.	Ildizi.	0,72% alkaloidlar. Hali to'la tekshirilmagan.	Qaynatmasi revma- tizmda ishlatiladi.



10	<i>Agriophyllum arenarium</i> Bieb.	Kumarchik peschaniy. Qum kumarchigi.	Urug'i, er uski qismi.	Saponin, alkaloid, 20% yog', oqsil moddalar va uglevod.	Haroratni tushiruvchi va og'riq qoldiruvchi dori sifatida.
11	<i>Ammოდendron Conollyi</i> Bunge in Boiss.	Peschannaya akatsiya Konolli. Quyvon suyak.	Bargi.	Ammოდendrin, tsitizin, paxikarpin, kanollin, akagrin, alkaloidlar.	Siydik haydovchi, nafas olishni engillatuvchi dori sifatida va yurak kasalliklarida.
12	<i>Atriplex</i> L.	Lebeda monetoplodnaya. Ko'krak.	Urug'i.	Alkaloidlar va saponinlar.	Qustiruvchi va ich yurituvchi dori sifatida.
13	<i>Agriophyllum minus</i> Fish. et Mey.	Kumarchik maliy. Kichik kumarchik.	yer ustki qismi.	Alkaloidlar va 10%gacha yog'.	Toshmali terlama kasalligida.
14	<i>Agriophyllum latifolium</i> Fish. et Mey.	Kumarchik shirokolistniy. Keng bargli kumarchik.	yer ustki qismi.	Saponin, alkaloid, yog'simon moddalar.	Xalq tabobatida turli kasalliklarda ishlatiladi.
15	<i>Acroptilon repens</i> L.	Gorchak polzuchiy Qo'zg'atuvchi kakra.	Poyasi.	Glyuko alkaloidlar, efir, saponin, vitamin-S, elim dubil' moddalar va shakar birikmalari.	Har xil kasalliklar shu jumladan bezgakda.
16	<i>Artemisia repens</i> L.	Polin polzuchaya. Qo'zg'atuvchi shuvoq.	yer ustki qismi, poyasi.	O'tkir hidli efir moyi, dubil' modda, kam miqdorda alkaloid, glikozid, karotin va tauratsin.	Poyasidan tayyorlangan qaynatmasi bezgak kasalligida.

17	<i>Allium sabulosum</i> Stev.	Luk peschanniy. Qum piyozi.	Piyozchasi va yer ustki qismi.	Saponin, flavanoid, glikozid, efir moyi, vit-S, karotin.	Teri va oshqozon ichak kasalliklarida, uyqusizlikda, siydiruvchi dori sifatida
18	<i>Alhagi pseudalhagi</i> (Bieb.) Decv.	Verblyujaya kolyuchka. Yantoq.	yer ustki qismi va ildizi.	2,12% $\alpha$ tubul' moddalar 0,2% $\alpha$ kumarin, vit-S, 3,4%flavanoidlar, karotin, 0,8%efir moddalar, kislotalar, alkaloid, glikozid, buyoq va shakar.	Turli erroziyalarda, dizenteriya, bavirus, yo'tal, jarohatlarda, ichdan qon ketishida va terlatuvchi siydik haydovchi dori sifatida
19	<i>Acanthophyllum Borszczowii</i> Litv.	Kolyuchelistnik borshova. Chinni o't, Sarsabiz.	Ildizi.	6,8% saponin, 0,04% alkaloidlar.	Suyak kasalliklari va tuberkulyozda.
20	<i>Anabasis salsa</i> (C. A. Mey.)	ejevnik solonchakoviy. Buyurgun.	yer ustki qismi.	0,15-3,5% alkaloid, proteinlar.	Abtsesslarda va siydik haydovchi dori sifatida.
21	<i>Artemisia annua</i> L.	Polin' odnoletnyaya. Bir yillik shuvoq.	Urug'i.	Alkaloidlar, organik moddalar, saponin.	Bezgak va oshqozon kasalliklarida.
22	<i>Anabasis annua</i> Bunge	ejevnik odnoletniy. Bir yillik buyurgun.	yer ustki qismi.	Saponinlar va alkaloidlar.	Har xil teri kasalliklarida.
23	<i>Abutilon theophrasti medic</i> L.	Kanatik teofrasta. Besbiyday.	Ildizi.	Viamin-S, shiimshtiqlar va yarim quruq yog'lar.	Yumshatuvchi dori sifatida va yo'talga qarshi.

24	<i>Atriplex nitens</i> Schk.	Lebeda losnyashayasya. Olabuta.	yer ustki qismi.	Alkalooidlar, vitamin-S.	Sariq kasalligida va siydik haydovchi dori sifatida.
25	<i>Artemisia terra albae</i> H. Krasch.	Polin' belyi. Oq shuvoq.	yer ustki qismi.	Protein, efir moyi, kumarin, azotsiz ekstrakt moddalar.	Ich ketish, bezgak, sariq kasalliklarida.
26	<i>Artemisia pausiflora</i> Web.	Polin' malotsvetkovaya . Kam gulli shuvoq.	Guli, ildizi.	Efir moyi, santonin karotin, shakar va gemitsellyuloza.	Gijjalarni haydashda.
27	<i>Artemisia austriaca</i> Jacq.	Polin' avstriyskaya. Avstriya shuvog'i.	yer ustki qismi.	0,4-0,5% efir moyi.	Bezgak va tish kasalligida.
28	<i>Bassia hyssopifolia</i> (Pall.) O. Kuntze	Bassiya issopolistnaya. Issop bargli bassiya.	yer ustki qismi.	Sal'solin va sal'solodin alkaloidlari.	Teri kasalliklarida.
29	<i>Chenopodium album</i> L.	Mar' belaya. Oq sho'ra.	yer ustki qismi.	Sitosterol, olean kisloti, efir moyi, alkaloid, leo'tsin, betain, karotin, vit-V, V <sub>1</sub> , V <sub>2</sub> , S, flavanoid, lipidlar, azotsiz moddalar.	Angina, isteriya, gastrit, nevtrasteniyaya, migren, lang, o'pka tuberkulyozi, bronxit, yo'tal, revmatizm, radikulit.
30	<i>Calligonum leucocladum</i>	Juzgun belokoriy, oq juzgun.	yer ustki qismi, urug'i.	Al'degidlar, keton, kumarin, sinapin,	O't ajratuvchi dori sifatida va sifilis,

	(Schrenk) Bunge				kofein xloragen, ferula, katexin, aromadendrin, astragalin giperin, alkaloid, flavanoid, dubil' moddalar.	revmatizm kasalliklarida.
31	<i>Anabasis salsa</i> (C.A. Mey.) Benth. ex Volkens	ejevnik solanchakoviy. Biyurgun.	yer ustki qismi.	0,15-3,5% alkaloid va protein.	Abtesslarda va siydik haydovchi dori sifatida.	
32	<i>Chenopodium murale</i> L.	Mar' stepnaya. Cho'l sho'ra, Dala sho'ra.	Ildizi, bargi, urug'i.	Alkaloidlar va sanoninlar.	Migren, revmatizm, nafas siqishida kasalliklarida va og'riq qoldiruvchi dori sifatida	
33	<i>Chrozophora sabulosa</i> Kar. et Kir.	Xrozofora peschanaya. Ko'k maraz cho'p.	Poyasi, ildizi.	Alkaloid, epirutin, xlороgen, kofein.	Ich yurituvchi dori sifatida.	
34	<i>Cannabis ruderalis</i> Janisch.	Konoplya sornaya. Yovvoyi kendir'.	Poyasi, gul shirasi.	Alkaloid, 1,9% dubil' moddalar, yog'lar.	Teri kasalliklarida va tish og'riganda, oshqozon og'rig'ini qoldiruvchi dori sifatida.	
35	<i>Ceratocarpus utriculosus</i> Bluk	Rogach sumchatiy. Xaltali ebelek.	yer ustki qismi..	Alkaloidlar, kumarinlar, karotin.	Shamollashda.	
36	<i>Cyperus glomeratus</i> L.	S'it' skuchennaya. Qalin atcho'qay.	Ildizmevasi.	Efir moyi, seskviterpen al'kogoli.	Terlatuvchi, uxlatuvchi dori sifatida va istma, buyrak, jigar	

37	<i>Ceratocarpus arenarius</i> L.	Rogach peschan'iy. Qum ebelegi.	yer ustki qismining shirasi.	Alkaloid izlari.	kasalliklarida. Dismenoreeya kasalligida ichiladi.
38	<i>Chenopodium rubrum</i> L.	Mar' krasnaya. Qizil sho'ra.	yer ustki qismi.	Alkaloidlar, saponinlar va flavanoidlar.	Tinchlantiruvchi, yumshartuvchi, havfli shishlarda, yarani yozuvchi dori sifatida.
39	<i>Cuscuta lehmanniana</i> Bunge	Povilika lemanna. Leman sariq cho'pi.	Hamma qismi.	Alkaloid, glikozid va boshqa moddalar.	Revmatizm va teri kasalliklarida.
40	<i>Camphorosma lessingii</i> Litv.	Kamforosma lessinga. Lessinga kamforasmasi.	Hamma qismi.	0,2% kamfora, efir moyi, alkaloid va saponinlar.	Revmatizm va teri kasalliklarida, siydik haydovchi, terlatuvchi dori sifatida.
41	<i>Gentaurium meyeri</i> (Bunge) Druce	Zolototisyachnik meyera. To'lg'aq cho'pi.	yer ustki qismi.	Gentsianin alkaloidi gentsiopekrin, eritaurin, flavanoid, oleanol, askorbin kislotalar, eritrotsentaurin.	Gijja haydovchi dori sifatida va tuberkulyoz, kamqonlik, buyrak, hazm qilish sistemasi kasalliklarida.
42	<i>Cynanchum sibiricum</i> Willd.	Tsinanxum sibirskiy. Sutlama.	Urug'i.	Tsinanxotserin, alkaloid izi, tsianxin va kauchuk.	Yurak kasalliklarida, strofantin ta'siriga o'xshash zararsiz.
43	<i>Clematis orientatus</i> L.	Lomonos vostochn'iy.	Poyasi.	Alkaloid, elim, miritstil, spirtli glikozid,	Ilon chaqqanida va turli teri kasalliklarida.

44	<i>Calystegia sepium</i> (L.) R. Br.	Tuyasingir. Povoy zaborn'iy Pechak gul.	Ildizi.	kumarin, flavanoidlar. 9% dubil' moddalar, rutin, flavanoidlar, alkaloid izlari.	Ich yurituvchi, og'riq qoldiruvchi, jarohatlarni yuvuvchi dorilar sifatida.
45	<i>Ceratophyllum demersum</i> L.	Rogolistnik pogrujenn'iy. Mugiz yaproq yoki chalang.	Suvli ekstrakti.	To'liq ma'lumotlar berilmagan.	Hindistonda bezgak, isitma va sariq kasalliklariga qarshi qo'llanilishi ma'lum.
46	<i>Ceratocephala falcata</i> Pers.	Rogolovnik serpovidn'iy. Chitir. To'mtoq bosh.	Bargi.	0,1% ranunkulin laktonlari.	Temirov va ekzemada.
47	<i>Ceratocephala orthocephala</i> DC.	Rogolovnik yaichkovidn'iy. Mugiz bosh.	yeyer ustki qismining shirasi.	0,26% uglevod, karotin, protoanemonin, 1,63-1,78% elim, 0,6% anemonin.	Jarohatlar, ekzema, teri kasalliklarida.
48	<i>Convulvulus arvensis</i> L.	V'yunok polevoy. Dala pechagi.	Poya, barg, gul, ildizi.	Flavanoid, kver-tsetin, kempferol, kofein, kislota, ka-rofin, vit-S, smola, kristall konvolin.	Jarohatda, hamda siydik haydovchi, ich yurituvchi, og'riq qoldiruvchi dori sifatida.
49	<i>Daucus carota</i> L.	Morkov' dikaya. Yovvoyi sabzi.	Ildizmevasi.	Efir moyi, kumarin, dautsin pirrol alkaloidi, yog'lar.	Siydik, gijja haydovchi dori sifatida.
50	<i>Dianthus caryophyllus</i> L.	Gvozdika sadovaya. Chinni gul.	Ildizi, gul shirasi.	Triterpenli saponinlar, alkaloid, saponin, alkaloid izlari.	Bezgak, oshqozon, bachadon hamda nafas olish organlari

51	<i>Delphinium songaricum</i> Nevski.	Jivokost djungarskaya. Quton tumshuq.	Guli.	0,62-1,2% alkaloid va 26,6% yog'.	Kasalliklarida. Ko'rishni yaxshilovchi va siydik haydovchi dori sifatida.
52	<i>Dorema sabulosum</i> Litv.	Dorema peschanaya. Sassiqliq tomir.	Ildizi, poyasi, bargi.	47-70% chayir, 0,03-2,0% efir moylari, 11-26% elim chayir.	Yo'tal qoldiruvchi va siydik haydovchi dori sifatida.
53	<i>Descurainia sophia</i> (L.) Webb. ex Prantl.	Deskuraynaya sofiya. Sigir quyruq.	Urug'i, bargi.	10%karotin, 27-30% yog', 60% benzilizotiotsianat, sinigrin glikozidi,12,5% allidissul'fid va efir moyi.	Isitma, bronxit, gipotoniya, dizenteriya kasalliklarida va jarohatlarni ketkazuvchi dori sifatida.
54	<i>Dodartia orientalis</i> L.	Dodartsiya vostochnaya. Taka saqol.	yer ustki qismi.	Alkaloidlar va saponinlar.	Sifilis kasalligida va ich yurituvchi dori sifatida.
55	<i>Agropyron repens</i> (L.) Beauv.	P'irey polzuchiy Bug'doyliq.	Ildizi.	Glyukozid, polisa-xarid, inozit, man-nit, kraxmal va 3% trititsin.	Rak, yo'tal, gastrit, kolit, revmatizm, jigar buyrak kasalliklarida va ich yurituvchi dori sifatida.
56	<i>Euphorbia</i> L.	Molochay sereyushiy. Sutli cho'p.	Sutli shirasi.	Alkaloid, flavanoid, elim, kauchuk, yog', dubil' moddalari.	Qichima, so'gal, har xil teri kasalliklarida hamda ich yurituvchi, yumshartuvchi dori sifatida.
57	<i>Eruca sativa</i>	Indau posevnoy.	yer ustki	0,07% alkaloid,	Shishlarda, teri,

	Mill.	Dala indovi.	qismi.	flavanoid, sitosterin, kampesterin, xolesterin, steroid, izoramnetin, kvvertsetin.	oshqozon ichak kasalliklarida hamda sut ajratuvchi va siydik haydovchi dori sifatida.
58	<i>Eminium lehmannii</i> (Bge.) O. Kuntze	Eminium lemanna. Kuchala.	Piyozchasi.	30%gacha kraxmal, saponin va alkaloid.	O'tkir revmatizmida hamda og'riq qoldiruvchi dori sifatida.
59	<i>Erigeron canadensis</i> L.	Melkolepestnik kanadskiy. Quray (Sigir quyruq).	yer ustki qismi.	Dubil' moddalar, vitamin-S, efir moyilari va alkaloid izlari.	Ko'z va teri kasalliklarida.
60	<i>Euphorbia sequieriana</i> Neck	Molachay segierov. Sutli cho'p.	yer ustki qismi.	Eufol triterpenoid, sitosterin steroidi, 1,65% kumarin, 10,9% dubil' moddalar, katexin, flavanoid, uglevod, spirt.	Ich yurituvchi, qustiruvchi, og'riq qoldiruvchi, siydik haydovchi dori sifatida shuningdek yurak kasalliklarida xam.
61	<i>Eremosparton aphyllum</i> (Pall.) Fisch. et Mey.	Eremosparton bezlistniy. Qulon quyruq.	Novdalari.	Ko'p miqdorda alkaloidlar.	Siydik haydovchi va ich yurituvchi dori sifatida.
62	<i>Epilobium hirsutum</i> L.	Kiprey volosistiy. Tukli kiprey.	Poyasi, bargi.	Vitamin-S va saponinlar.	Bosh og'rig'ida, nerv kasalligida va ich yurituvchi o'rnida.
63	<i>Equisetum ramosissimum</i> Desf.	Xvosh vetvistiyy Shoxli qirq bo'g'im.	Poyasi.	Flavanoid, alkaloid, glyukozyd, saponin, organik kislotalar, pektin va elimlar.	Ayirish sistemasi kasalliklarida va o'tdagi toshlarni tushirishda.



64	<i>Fumaria vaillantii</i> Loisel.	Dimyanka vayyana. Vayan fumariyasi.	Poyasi.	Alkaloid, vit-S,K,e karotin, glikozid, shakar, efir moyi, dubil' moddalar.	Isitmada, jarohatlarda, sariq va yurak qon tomir kasalliklarida.
65	<i>Frankenia hirsuta</i> L.	Frankeniya jistikovoli- sistaya. Kuyon, o't.	Bargi.	Fenolkarbon kislota, kvertsetin flavanoidlari, tsianidin, antotsianlar.	Ich yurituvchi dori sifatida.
66	<i>Ferula assa- foetida</i> L.	Ferula vonyuchaya. Sassi q kovrak.	Ildizi.	55-60% fenol, 67,5% kraxmal, efir moyi, smola, chayir moddalar.	Jigar, oshqozon, taloq, buyrak kasalliklarini davolashda.
67	<i>Girgensohnia oppositiflora</i> (Pall.) Fenzl	Girgensoniya suprotivno- tsvetkovaya. Qanboq cho'pi.	Ildizi, poyasi, guli, mevasi.	Glyukan uglevodi, trixozidlar, 3-11% triterpenli saponinlar.	Jarohatlarda va yuqumli kasalliklarga qarshi dori o'rnida.
68	<i>Halostachys caspica</i> (Bieb.) C.A.Mey.	Solyanokolosnik kaspyskiy. Qarabaraq.	yer ustki qismi.	Golostaxin, alkaloid, aminokislota, antraxinon, 23-32% kul, flavanoid.	Qon tomirlarini kengaytiruvchi dori sifatida.
69	<i>Haloxyllon ammოდendron</i> (C.A.Mey.) Bunge in Ledeb.	Saksaul zaysanskiy. Qirsaksovul.	yer ustki qismi.	Olma, limon kislotalari, saponin vit-K,S,RR, fenol karbon kislotalari, dubil' moddalar.	Bavosil, skrofulyoz kasalliklarida va siydik haydovchi, jarohatlarni yozuvchi dori sifatida.
70	<i>Hypecoum parviflorum</i> Kar.	Gipekoum melkotsvetkoviy.	yer ustki qismi.	Saponin, alkaloid.	Narkoz sifatida nerv sistemasini

	et Kir.	Mayda gulli gipekoum.			tinchlantiradi.
71	<i>Heliotropium ellipticum</i> Ledeb.	Geliotrop elliepicheskiy. So'poq choy cho'p.	yer ustki qismi.	Geliotropin, tsinoglosin, lizokarpin, fitontsiden, vit-S, ko'p alkaloidlar.	Hindistonda jarohatlarga va chayon, ilon chaqqanida.
72	<i>Hibiscus trionum</i> L.	Gibikus voloviy. Uch qatorli kenaf.	Bargi, guli.	Uglevod, shakar, 8,5% shilimshiq, flavanoid, galak-turon kislotasi.	Teri kasalliklarida va ich yurituvchi, siydik haydovchi, balg'am ko'chiruvchi dori sifatida.
73	<i>Heliotropium arguzioides</i> Kar. et Kir.	Geliotrop arguzieviy. Choy barg yoki ko'k maraz o'ti.	Bargi.	Trixodesmin va geliotrin alkaloidlari bor.	qattiq bosh og'rig'ini qoldiruvchi dori sifatida.
74	<i>Iris germanica</i> L.	Iris germanskiy. Qoraqosh.	Ildizi.	Efir moylari.	Yosh bolalarda tish o'siruvchi dori sifatida.
75	<i>Iris songarica</i> Schrenk	Iris djungarskiy. Qurtqashash.	Ildizi.	Alkaloid izlari va 20%gacha kraxmal.	Balg'am ko'chiruvchi va nerv sistemasini tinchlantiruvchi dori sifatida.
76	<i>Imperata cilindrica</i> (L.) Beauv.	Imperata tsindricheskaya. Qizil qiyog.	Ildizi.	Vitamin-K, saxaroz, glyukoza va boshqa uglevodlar.	Yo'talda va siydik haydovchi, balg'am ko'chiruvchi, qon

77	<i>Iris longiscapa</i> Ledeb.	Iris dlimo- stebel'niy. Kempir shash.	Ildizi.	Efir moylari.	to'xtatuvchi sifatida. Sifilis kasalligida tamakiga qo'shib chekilsa samarali foyda beradi.
78	<i>Kochia scoparia</i> (L.) Schrad.	Koxiya venichnaya. Sipse izeni.	yer ustki qismi.	82% organik kislotalar, 3% sitosterin, stig- masterin, kamps-terin, steroidlar, alkaloidlar, dubil' moddalar.	Revmatizm, qovuq tosh kasalligida va ich yurituvchi, terlatuvchi, yurak ishini boshqaruvchi dori sifatida.
79	<i>Lactuca serriola</i> L.	Laktuk dilkiy. Yovvoyi choypechak.	Poyasining sut shirasi.	Kauchuk va alkaloid izlari.	Uyqusizlikda, nafas siqishida, yo'talda, shishlarda va nerv kasalliklarida
80	<i>Lycopus</i> <i>europaeus</i> L.	Zyuznik evropeyskiy. evropa qasqirayag'i.	Poya shirasi.	Flavanoid, kumarin, likopin, alkaloid vitamin-S, karotin, dubil' moddalar.	Bachadondan qon ketishida hamda qalqonsimon bez ishini yaxshilashda.
81	<i>Limonium</i> <i>gmelinii</i> (Willd.) O. Kuntze.	Kermek gmelina. lyt siygek. Boyao' tamir.	Ildizi.	6,1-25% dubil' moddalar, 22,2% tan- min, 7,46% uglevod, 3,7% flavanoidlar.	Dizenteriya, interokolit kasalliklarida va tomoqni chayish uchun.
82	<i>Lythrum</i> <i>salticaria</i> L.	Derbennik obiknovenniy. Kelingul.	Guli, ildizi, bargi.	Alkaloid, shakar, kraxmal, karotin va dubil' moddalar.	Jarohatlarda, ichdan qon ketishida va oshqozon kasalligida.

83	<i>Lipidium obtusum</i> Basin.	Klopovnik tupoy. Ming bosh.	Ildizi, yer ustki qismi.	0,08% organik kislotalar, saponin, alkaloid, 76% dubil' moddalari,	Nerv, tish, teri va hazm qilish sistemasi kasalliklarida.
84	<i>Lycium ruthenicum</i> Murr.	Dereza ruskaya. Oq tikan.	Pishgan mevasi.	Qizil pigment fizolein, atropin.	Oshqozon og'riganda, nafas olish qiyinlashganida, sariq kasalligida va ich yurituvchi dori sifatida.
85	<i>Lipidium perfoliatum</i> L.	Kolopovnik pronzenniy. Tesik Japirraq.	yer ustki qismi.	Vit-e, karotin, kempferol, rutin, kvvertsetin, antozid, nikotiflorin flavanoidi, gorchitsa moyi va kislotalar.	Bosh og'riganda, podagra, shishlarda, ko'z va nafas olish organlari kasalliklarida.
86	<i>Lipidium iaserum</i> C.A. Mey.	Klopovnik razreznoy. Tilik cho'p.	yer ustki qismi.	Flavanooidlar, efir moylari, 11-19% yog'.	Astsitda, revmatizm va bakteriyalarga qarshi qo'llaniladi.
87	<i>Lallemantia royleana</i> (Wall.) Benth.	Lallemantsiya roylya. Roil lallemantsiyasi.	Mevasi.	Efir moylari va alkaloidlar.	Siydik haydovchi va balg'am ko'chiruvchi dori sifatida.
88	<i>Melilotus albus</i> Medik.	Donnik beliy. qasqa yovvoyi yo'ng'ichqa.	yer ustki qismi.	Protein, efir moyi, kumarin, santonin, azotsiz ekstrakt	Bronxit, migren', nevralgriya, isitma kasalliklarida,

				moddalar.	shamollashda hamda balg'am ko'chiruvchi dori sifatida.
89	<i>Melo agrestis</i> (Naud.) Pang.	Dinya sorno polevaya. Iyt tuynek.	Ildizi, mevasi.	Dubil' moddalar, organik kislotalar, alkaloid izlari.	Shishlarda, ekzema va sariq kasalligida.
90	<i>Merendera robusta</i> Bunge	Merendera krupnaya. Sanrao' qulaq.	Piyozchasi.	Kolixitsin, kolxemin, kolxeamin, kolxitsein alkaloidlari.	Revmatizm, yurak va bo'g'im og'rig'ini qoldiruvchi sifatida.
91	<i>Malacocarpus crithmifolius</i> (Retz.) C.A.Mey.	Myagkoplodnik kritermolistniy. Xon chiya.	Bargi, poyasi va mevasi.	Bargida 0,64%, barg-gida 0,88% alkaloid.	Buyrak, jigar, yurak kasalliklarida va jarohatni yozuvchi, qon to'xtatuvchi dori sifatida
92	<i>Malva mauritiana</i> L.	Prosvirnik mavritanskiy. Mavritan tugmacha guli.	Ildizi, guli, bargi.	Dubil' moddalar, glyukoza, fruktoza, vit-S, karotin, mal'vin.	Bronxit, tomoq va yurak kasalliklarida.
93	<i>Malva neglecta</i> Wallr.	Prosvirnik prenebrejeniy. Tugmacha gul.	yer ustki qismi.	0,66-4,9% uglevod, kumarin, katotin, dubil' moddalar, 14,7-17,3% yog', vit-V,S,K,e.	Jarohatlar, skrofulyoz, bavoil kasalliklarida va ich yurituvchi dori sifatida.
94	<i>Matricaria</i> L.	Romashka obrezennaya. Cho'pon telpak.	Guli.	Alkaloid, efir moyi, glyukoizidlar.	Tutqanoqda, jarohatlarda va teri kasalliklarida,
95	<i>Nepeta cataria</i> L.	Kotovnik koshachiy. Ko'k	Hamma qismi.	0,2-0,4% efir moyi, saponin, 7,6% dubil'	Shamollashda, anemiyada, bosh

		bosh.		moddalar.	og'riganida, yo'talda.
96	<i>Nanophyton erinaceum</i> (Pall.) Bunge	Nanofiton ejevii. Toshbiyurgun.	yer ustki qismi.	0,1-0,15% dimetil-piperidin alkaloidi saponin.	Ekzemada, boshning zamburug' kasalligida (gribovye), qon bosimini pasaytiruvchi dori sifatida.
97	<i>Polygonum lapatifolium</i> L.	Gorets sherexovatii. Budir tarii cho'p (Qizil tariq).	Poya shirasi.	Fenolkar'on kislota va du'il' moddalar.	Bavosil, tuberkulyoz, yurak qon tomir kasalliklarida va siydik haydovchi dori sifatida.
98	<i>Polygonum amphibium</i> L.	Gorets zemnovodniy. Dori tomir.	Ildizpoyasi.	Saponin, kumarin, vit-S, flavanoid, dubil' moddalar, karotin.	Revmatizm, nerv, endokren va oshqozon kasalliklarida.
99	<i>Papaver pavoninum</i> Schrenk.	Mak pavlinniy. Lolaqizg'aldoq.	Gul bargining shirasi.	1,8-8,59%flavanoid, kontizion alkaloidlari.	Ko'z, teri va o'sma kasalliklarida.
100	<i>Phragmites australis</i> (Cav.) Trin. ex Steud.	Trostnik obiknovenniy. Qamish.	Bargi, ildizi.	Kraxmal, vit-S va karotin.	Siydik haydovchi, terlatuvchi dori sifatida.
101	<i>Polygonum aviculare</i> L.	Gorlets ptichiy. Qizil tariq.	yer ustki qismi.	Olma, limon kislotalari, 7-2% saponin, vit-S,K,RR fenol karbon kislotalari, 2-6% dubil' moddalar.	Siydik haydovchi, jarohatlarni yozuvchi dori sifatida.

102	<i>Portulaca oleracea</i> L.	Portulak ogorodniy. Semiz o't.	yer ustki qismi.	Alkaloid, glyukozid, saponin, shakar, vit-S, RR, K, e, flavanoid, karotin, dubil' moddalar.	Dizenteri, buyrak, jigar kasalliklarida hamda zaharli hayvonlar chaqqanida.
103	<i>Ranunculus scleratus</i> L.	Lyutik yadovitiy. Zaharli ayiqtovon.	yer ustki qismi.	5,7% organik kislotalar, saponin, alkaloid, vit-S, flavanoid, kemp-ferol, kvvertsetin, giperozid, 0,5% protoanemonin.	Gripp, astsit, shishlar, gastroenterit, bosh, oshqozon, teri kasalliklarida.
104	<i>Rubus caesius</i> L.	ejevika sizaya. Ko'kish ejevika.	Bargi.	Organik kislotalar, vitamin-S, dubil' moddalari.	Ich ketishida va nafas organlari kasalliklarida.
105	<i>Rumex halacsvi</i> Rech.	Shavel' galachiy. Qizil xo'roz o't.	Ildizi.	Kvertsetin flavanoidi, 0,7-3,07% antroxinonlar, fenollar.	Ich yurituvchi dori va bo'yog moddasi sifatida
106	<i>Roemeria refracta</i> DC.	Remeriya otognutaya. Qizg'aldoq.	Guli, bargi.	0,12% alkaloid, vit-S, 0,75% dubil' moddalar, 0,53% flavanoidlar.	Chechak, ko'z kasalliklari va toshmada.
107	<i>Rheum tataricum</i> L.f.	Reven' tatarskiy. Tuya yaproq.	Ildizi, mevasi.	Vit-S, karotin va kaktexinlar.	Isitma va oshqozon ichak kasalliklarida.
108	<i>Rheum turkestanicum</i> L.	Reven' turkestaniskiy. Turkiston t.ya.	er ostki qismi.	Vit-S, flavanoid, antraxinon, tannin, dubil' moddalari.	Oshqozon, yurak og'rig'i va isitmaga qarshi dori sifatida.
109	<i>Salsola dendroides</i> Pall.	Solyanka drevovidnaya.	Poya, urug', mevasi.	Organik kislota, alkaloid, kul, saponin.	Sovun olinadi va klizma qilishda ishlatiladi.

110	<i>Sinapis arvensis</i> L.	Aqsar. Gorchitsa poleyava. Dal gorchitsasi.	Urug'i, poyasi, bargi.	Mirozin fermenti, siigrin glyukozidi, organik kislotalar.	Revmatizmda, shishlarda, temirchakda, tirakdan zaharlanganda.
111	<i>Sorghum</i> <i>halepense</i> (L.) Pers.	Sorgo alepskogo. G'umay.	Ildizi, urug'i.	Kraxmal, shakar, karotin, zaharli birikmalar.	Nevralgiya va revmatizm kasalliklarida.
112	<i>Sisymbrium</i> <i>loeselii</i> L.	Gulyavnik lezelya. To'ng'iz o'ti.	Ildizi, urug'i, bargi.	Alkaloid, vit-S, tioglikozid, dubil' moddalar, karotin.	qon bosimini oshirishda va yurak qon tomir kasalliklarida.
113	<i>Salicornia</i> <i>europaea</i> L.	Soleros evropeyskiy. Qizil sho'ra.	yer ustki qismi.	0,04% alkaloid, salikormin, xolin, saligerbin, betain, dubil' moddalar.	Hazm qilish sistemasi kasalliklarida hamda terlatuvchi ich yurituvchi dori sifatida.
114	<i>Scutellaria</i> L.	Shlemnik kolpochkoviy. Qalpaqshali dulig'a cho'p.	Bargi.	Skutellarin flavonli glyukozidi, vitamin-S.	qon bosimini pasaytiruvchi va qon to'xtatuvchi dori sifatida.
115	<i>Suaeda</i> <i>physophora</i> Pall.	Sveda vzdutoplodnaya. Torsiq sora.	Hamma qismi.	Potash, alkaloidlar.	Yurak kasalliklarida va gija haydovchi dori sifatida.
116	<i>Saccharum</i> <i>spotaneum</i> L.	Saxarniy trostnik dikiy. Shakar qamish.	Poyasi.	10-18% saxaroza, glyukoza, fruktoza va boshqa uglevodlar.	Zaxarlanishda, yurak qon tomir sistemasi kasalliklarida.
117	<i>Salsola collina</i>	Solyanka	yer ustki	Saponinlar.	Buyrak jigar yurak



	Pall.	xolmovaya. qanbaq sora.	qismi.		kasalliklarida.
118	<i>Suaeda prostrata</i> Pall.	Sveda stelyayushayasy a. Qara sora.	yer ustki qismi.	Saponin, alkaloid va kul moddalari.	Kuchli ich yurituvchi dori sifatida.
119	<i>Salsola paletzkiana</i> Litv.	Solyanka paletskaya. Qara cherkez.	yer ustki qismi, urug'i.	Ko'p miqdorda alkaloidlar.	Qon bosimini oshiruvchi, nafas olishni pasaytiruvchi.
120	<i>Brassica juncea</i> (L.) Czern.	Gorchitsa sarepts kaya. Sarept gorchitsasi.	Urug'i.	Sinigrin glyukozidi, mirozin fermenti, 42%yarim qurg'ovchi yog'.	Qon bosimi ko'tarilganda, ishtaha ochishda, oshqozon kas alliklarida.
121	<i>Sophora sabulosum</i> L.	Sofora lemanna. Sassi q cho'p.	Ildizi.	Sofokarpin, paxi-karpin, ammotamin alkaloidlari.	Revmatizm, ganglionit, miopatiya kasalligida.
122	<i>Tamarix hispida</i> Willd.	Grebenshik shetinosiy. Aq jing'il.	Shirasi, bargi, ildizi, po'sti.	Dubil' moddalar, kumarin, flavanoid, tamariksetin, alkaloid, kofein.	Revmatizmda, og'iz bo'shlig'i va oshqozon ichak kasalliklarida.
123	<i>Trifolium repens</i> L.	Klever polzuchiy. Oq bosh yo'ng'ichqa.	yer ustki qismi.	Vit-S <sub>e</sub> , karotin, alkaloidlar, izofoavon, kumarin.	Jarohatlarda, shamollashda, yo'tal va siydik haydovchi.
124	<i>Tamarix laxa</i> Willd.	Grebenshik rixliy. Tishqaq jing'il.	Bargi, poyasi, guli.	Tamariksin flavanoidlari, dubil' moddalar, SO <sub>2</sub> li natriy.	Befarzandlikda, revmatizmda, taloq va sariq kasalliklarida.
125	<i>Tamarix</i>	Grebenshik	Poyasi, guli,	Kumarin, flavanoidlar,	Rematizmda, oshqozon

	<i>pentandra</i> Pall.	mnogovetvistiyy. Urpek 'osh jing'il.	bargi.	steroid, xolesterin, avenosterol, dubil' moddalar.	ichak kasalliklarida va qon to'xtatuvchi dori sifatida.
126	<i>Tithymalus turchaninowii</i> Klotzsch et Gurcke ex Klotzsch	Molachay turchaninova. Qo'ziqulaq.	yer ustki qismi.	Xloragen, rozmarin, kofein fenolkarbon kislotalari, kemp-ferol, flavanoidlar.	Jarohatlarda, bavosil, gastrit, oshqozon ichak kasalliklarida va ich yurituvchi ishtaha ochuvchi dori sifatida.
127	<i>Trifolium rubrum</i>	Klever krasniy. qizilbosh yo'ng'ichqa.	Guli, bargi.	Glyukozydilar, elimlar, flavanoid, izoflavon, karotin, vitamin-S.	Tuberkulyozda, isitmada, balg'am ko'chiruvchi, siyidik haydovchi, mikroblarni yo'qotuvchi dori sifatida.
128	<i>Thalictrum isopyroides</i> C.A. Mey.	Vasillistik izopiroiniy. Maral o'ti.	Hamma qismi.	Saponin, alkaloid, kumarin, dubil' moddalari.	Tutqanoqda va tomir tortishida.
129	<i>Ziziphora pedicellata</i> L.	Zizifora tonkaya. Ingichka kiyik o'ti.	Guli va shoxlarining yuqorgi uchi.	Efir moyi, mentol, pulegon, glyukozid, alkaloid, organik kislotalar.	Nevrasteniya, ateroskleroz, ich ketishda va oshqozon kasalliklarida
130	<i>Urtica dioica</i> L.	Krapivo jguchaya. Chayon o'ti.	Bargi.	Atsetilxolin, gistamin, karotin, gidrostreptomina, vitamin-V <sub>1</sub> ,S.	Ko'k yo'tal, podagra, kuyishda, mikroblarga qarshi va siyidik hay- dovchi dori sifatida.
131	<i>Vaccaria</i>	Tisyachegolovni	yer ustki	Saponarin, saponin,	Ekzemada, shishlarda va

	<i>hispanica</i> (Mill.) Rauschert	k posevnoy. Ming bosh.	qismi.	flavanoidlar.	teri kasalliklarida.
132	<i>Xanthium strumarium</i> L.	Durnishnik zabovidniy. Oshag'an.	yer ustki qismi.	Alkaloid, askorbin kislota, yod, yog', glikozid.	Bezadov, bavoasil, bezgak kasalliklarida va terlatuvchi sifatida.

## **2.2. Qoraqalpog'istonning madaniy dorivor o'simliklari**

Dunyo bo'yicha er sharida 500 mingdan ortiq o'simlik turlari mavjud bo'lib, shu-lardan 20 mingdan ziyodi insonlar tomonidan ekib o'stiriladigan madaniy o'simliklardir.

Akademik P.M.Jukovskiyning fikricha, hozirda ekilayotgan deyarli barcha mada-niy o'simliklar bizning eramizdan bir necha ming yillar ilgari xonakilashtirilgan. Biz-ning eramizda esa dehqonchilikka lavlagi, kauchuk olinuvchi xeveya va dorivor xinin daraxti kabilar kiritilgan. Qadimda avval insonlar tomonidan dastlab oziq-ovqat uchun eng zarur hisoblangan donli, keyinroq mevali, dorivor, tolali va boshqa foydali o'simliklar ekila boshlagan.

Bu o'simliklarni o'rganishda ular guruhlarga ajratiladi. Madaniy o'simliklarning tasnifi ulardan olinadigan mahsulotning ishlatilish xarakteriga qarab tuziladi. Masalan, 1. Donli o'simliklar, 2. Tuganakmevali, ildizmevali va poliz o'simliklari, 3. Moyli o'simliklar, 4. Tolali o'simliklar, 5. yem-xashak o'simliklar, 6. Narkotik o'simliklar, 7. Dorivor o'simliklar va h.zo.

Madaniy o'simliklar turli maqsadlarda: oziq-ovqat, sanoat, meditsina, texnika, xul-las xalq-xo'jaliginig turli sohalarida kishilar ehtiyojini qondirish uchun ekib ko'pay-tiriladi. Madaniy o'simliklarning turlari juda ko'p va turli-tuman muhitlarda tarqalgan, o'sishga moslashgan. Shu boisdan har bir o'simlik turi ma'lum bir tuproq va iqlim sha-roitida shakllanadi va shu jarayonda o'simlikda ma'lum biologik xususiyatlar shakl-lanadi. O'simlikning biologiyasini aniqlash uchun shu tur genotipining shakllanishiga ta'sir ko'rsatadigan ekologik sharoitni o'rganish zarur. Shuning uchun ham ko'pchilik olimlarning fikricha madaniy dorivor o'simliklarni yetishtirish jarayonida ularning kelib chiqish mintaqalarini bilish muhim ahamiyat kasb etadi. O'simliklarning kelib chiqish markazlari 1935-yili ilk bor ulug' rus olimi N.I.Vavilov tomonidan aniqlangan. Keyinchalik boshqa olimlar tomonidan to'liqtirilib, hozga qadar 12 ta kelib chiqish markazlari aniqlanilgan.

1. Xitoy-Yaponiya markazi. Bu mintaqadan soya, bug'doy, tariq, marjumak kelib chiqqan.

2. Indoneziya, Janubiy Xitoy markazi – suli, shakar qamish, meva va sabzavot ekinlari kelib chiqqan.

3. Avstraliya markazi – sholi, g'o'za, sebarga, tamaki, evkalipt, tropik daraxtlar kelib chiqqan.

4. Hindiston markazi – hind bug'doyi, g'o'za turlari, shakarqamish va meva, sabzavot ekinlari kelib chiqish markazi.

5. Markaziy Osiyo – ko'k no'xat, mosh, nasha, maxsar, qovun, javdar va boshqa ko'p yillik o'simliklar markazi.

6. Old Osiyo – arpa, beda, zig'ir, sabzavot ekinlari kelib chiqqan.

7. O'rta er dengizi – karam, lavlagi, sabzi, sholg'om, turp, piyoz, sarimsoq, ko'knori kabi o'simliklarning kelib chiqish markazi.

8. Afrika markazi – jo'xori turlari, tariq, kanakunjut, sholi, bug'doy, palma, kofe, dukkakli ekinlar kelib chiqqan.

9. Ovroqpa-Sibir markazi – tolali zig'ir, duragay sebarga, beda turlari, kendir, xmel, meva va sabzavot ekinlari kelib chiqqan.

10. Markaziy Amerika – makkajo'xori, loviya, qovoq, ingichka tolali paxta, shirin kartoshka, maxorka, qalampir, ko'p yillik o'simliklar.

11. Janubiy Amerika – madaniy kartoshka, tamaki, pomidor, arpa, makkajo'xori turlari.

12. Shimoliy Amerika – arpa turlari, lyupin, kungaboqar, sabzavot va rezavor o'simliklar.

Bu o'simliklarning aksariyati dehqonchilikda 500 ming yildan beri ekilmoqda. Shu boisdan ular o'z vatanidan uzoq boshqa tuproq iqlim sharoitlariga moslashib, evolyutsion jarayonlar natijasida morfologik va fiziologik, biokimyoviy xususiyatlari o'zgarib ketgan.

Biz iste'mol qiladigan qadimdan ma'lum bo'lgan madaniy turlarning ko'pchiligi shifobaxshlik hususiyatiga ega bo'lgan dorivor o'simliklar hisoblanadi.

Madaniy o'simliklar odamlar bilan bog'liq, chunki ularni ekish, o'stirish, parva-rishlash ishlari odamlar tomonidan amalga oshiriladi. Shuni ham ta'kidlab o'tishimiz kerakki barcha madaniy o'simliklar, yovvoyi o'simliklardan kelib chiqqan.

Mavjud barcha madaniy o'simlik turlari o'zining morfo-biologik xususiyatlari bilan bir-biridan farq qiladi.

Madaniy ekinlarimizdan ko'pchiligi dori-darmonlik hususiyatiga ega buni quyida keltirilgan jadvalda ham kuzatishimiz mumkin. Quyida bizda mavjud ayrim madaniy o'simlik turlarining qo'llaniladigan qismlari kimyoviy tuzilishi va ishlatilishi haqida qisqacha ma'lumotlar bayon etildi (3-jadval).

**3-jadval**  
**Qoraqalpog'istonning ayrim madaniy dorivor o'simliklari, ularning qo'llaniladigan qismlari, kimyoviy tarkibi va ishlatilishi**

№	Ilmiy nomi	Ruscha va mahalliy nomlari	qo'llaniladigan qismi	Kimyoviy tarkibi	Ishlatilishi
1	Ailanthus altissima (Mill.) swingle	Aylant visochayshiy. Eng baland ayland.	Mevasi, Bargi.	Organik moddalar, qand, uglevod, oqsil flavanoidlar	Anginada, dizenteriyada, buyrak va jigar tosh kasalliklarida,
2	Alcea rosea L.	Shtok roza. Gulhayri.	yer ustki qismi, ildizchasi	Durrin glikozidi, kraxmal, karotin, zaharli moddalar.	Siydik haydovchi, podagra, nevralgia, revmatizm kasalligida
3	Avena sativa L.	Oves posevnoy. Ekish sulisi.	Doni, poyasi.	Kraxmal, oqsil moddalar, efir moyi, vitaminlar mineral tuzlar.	Ich ketishda, terlatuvchi, siydik haydovchi, haroratni tushiruvchi dori sifatida.
4	Brassica rapa L.	Repa. Sholg'om.	Ildizmevasi.	9%qqand, vit-s, mineral tuzlar, tiamin, yog', oqsil, vit-v <sub>1</sub> , v <sub>2</sub> , v <sub>6</sub> , rr, karotin.	Kamqonlilikda, ko'z xiralashganda, shamollashda, teri kasalliklarida, oshqozon yara kasalliklarida, hamda aterosklerozda.
5	Capsicum annum L.	Perets odnoletniy. Qizil muruch.	Mevasi.	Vit-A, S, karotin, yog', efir moyi, alkaloidlar.	Ishtaha ochuvchi, hazm qildiruvchi, shamollashda, shishlarda, revmatizmdda.

6	Citrullus lanatus (Thunb.) Mansf.	Arbuz obiknovennaya. Tarvuz.	Mevasi.	Triterpenoidlar, qand, vit-v1, v2, s, rr alkaloidlar, ugle- vodlar, glikozidlar dubil' moddalar, yog', askorbin kislotalari	Kam qonlilikda, astsitda, oshqozon-ichak, nerv, buyrak va siydik yo'llari kasalliklarida.
7	Cucumis sati- vus L.	Ogurets posevnoy. Bodring.	Mevasi.	Qand1,3-3%gacha, va askorbin kislotalari	Tuburkulyoz, oshqozon, jigar, sariq kasalligida
8	Cydonia oblonga Mill.	Ayva prodolgavataya. Behi.	Mevasi.	Efir moyi, qand, organik kislotalar, fruktoza, vit-s, dubil' moddalar.	Dizenteriya, ich ketishi, siydik haydovchi va hazm yo'llari kasalliklarida.
9	Elaeagnus orientalis L.	Lox vostochniy. Jiyda.	Guli, mevasi.	Oqsil, glyukoza. Fruktoza, vit-s, organik kislotalar, K va R tuzlari, efir moyi	Ich ketishida, yurak qon tomir kasalliklarida, qon bosimi ko'taril-ganida (gipertoniya),
10	E. pungens Thunb.	L.turkemenskiy. jigildik.	Mesasi.	Uglevod, tannin, vit-s, organik kislotalar, K va R tuzlari mavjud.	Ich ketishida, nafas olish yo'llari va oshqozon ichak kasalliklarida (kollit).
11	Eruca sativa Lem.	Indav posevnoy. Ekin indovi.	yer ustki qismi.	Alkaloid, flavanoidlar; kempferol, kvartetin, izoramnetin.	Lat egan shishigan erlarga, siydik haydovchi, hazm qildiruvchi. Sut ajralishini yaxshilochi dori sifatida.



12	Fragaria ananassa Duch.	Zemlyanka ananasnaya. Qulupnay.	Mevasi.	Shakar, organik kislotalar, vit-s, /e, K, Sa mikro-elementlari bor.	Kam qonlik, podagra, siydik haydovchi buyrak va jigar toshlari tushuruvchi sifatida.
13	Fraxinus excelsior L.	Yasen' obiknovenniy. Oddiy yasen'.	Bargi, qobig'i.	Kvertsitrin, mannit, tannin, efir moylari, kumarin glkozidi, siringin, vit-s, olma kislotalari.	Yo'tal, revmatizm, jigar kasalligida, gijja haydovchi ichni suruvchi, siydik haydovchi va tana haroratini pasaytuvchi dorilar sifatida.
14	Gossypium barbadense L.	Xlochatnik obiknovennaya. Oddiy paxta.	Tolasi. Moyi.	Kletchatka, smola, gossipol, vit-k, organik kislotalar.	Kompress, ichdan qon ketishida moyidan.
15	Hordeum vul- gare L.	Yachmen obikn. Oddiy arpa.	Doni.	Oqsillar, yog'lar, uglevodlar, fermentlar.	Ich ketishida, yo'tal, bronxit, bavonsil va oshqozon ichak kasalliklarida.
16	Isatis tinctoria L.	Vayda krasilinaya. Surma (o'sma).	Bargi.	Indigotin bo'yoq moddalar, azot birikmalari, izoskopolin flavanoidlari.	Jarohatlarda, chipqon, dermatamikoza, taloq kasalliklarida
17	Lycopersicon esculentum Mill.	Pomidor.	Mevasi.	Pektin moddalar, alkaloidlar, organik kislotalar, purinlar.	Hazm qilish sistemasi va buyrakning tosh kasalliklarida.
18	Malus	Yablonya	Mevasi.	Shakar 10%, pektin,	Qovuq tosh kasalligida,

	domestica Borkh.	domashnaya. Olma.		bo'yoq va dubil' moddalar, vit-s, r, organik kislotalar, quruq moddalar, efir moyi, Mp, /e, Z, V, Mo kabi mikro elementlar.	revmatizm, yo'tal, kollit, avitaminozlarda.
19	Medicago sativa L.	Lytserna posevnaya. Beda.	yer ustki qismi.	Vit-A, V <sub>1</sub> , V <sub>2</sub> , S, D, protein, azotsiz ekstrakt moddalar.	Shap ko'rik kasalligida va siydik haydovchi dori sifatida.
20	Melo sativus sageret ex Roem.	Dinya vostochnaya. Qovun.	Mevasi.	50%gacha shakar, vit-s, rr, har xil kislotalar.	Jarohatlarda, jigar, yurak qon tomir kasalliklarida va siydik haydovchi dori sifatida.
21	Morus alba L.	Tut beliy, Oq tut	Mevasi.	Vit-V <sub>1</sub> , V <sub>2</sub> , R, S, lipid, alkaloid, limon va organik kislotalar, shakar.	Isitma, ichak kasalligi, qon tozalovchi, qon ko'paytiruvchi dori sifatida.
22	M. nigra L.	Tut chyornaya. Qora tut.	Mevasi.	Uglevod, glyukoza, organik kislotalar; olma, limon, vit-S, V <sub>1</sub> , V <sub>2</sub> , RR, karotin, shakar.	Skarlatina, gipertonik kasalliklarda, balg'am ko'chiruvchi, gijja, siydik haydovchi, og'iz va tomoqni chayqash uchun.
23	Ocimum basilicum L.	Bazilnik kamformiy. Yalpiz.	Ildizi, bargi, mevasi.	1% efir moyi borligi ma'lum tarkibi hali to'la tekshirilmagan..	Dizenteriya, gonoreya kasalliklarida va bargi gameopatiyaga

					ishlatiladi.
24	Oryza sativa L.	Ris posevnoy. Sholi.	Doni.	Uglevodlar yog'lar kraxmal, glyukoza, saxaroza, mannoza, kleyloza, galaktoza, oqsil, arabinoza.	Ich ketishida, teri kasalliklarida, hamda kepagi «qush grippida» touqlarga beriladi.
25	Panicum miliaceum L.	Proso posevnoe. Tariq.	Urug'i.	Organik kislotalar uglevodlar, oqsil, kraxmal va shakar.	Oshqozon kasalliklarida, bel og'riqlarida.
26	Phaseolus aureus Roxb.	Fasol' zolotistaya. Mosh.	Urug'i.	Oqsil, yog', kraxmal, uglevodlar, shakar, organik kislotalar turli vitaminlar	Xazm qilishni yaxshilash, ko'zni ravshanlashtirish, bosh og'rig'i, buyrak kasalliklarida va shamollashda.
27	Ph. Vulgaris L.	F. obiknovennaya. Loviya.	Urug'i.	Glabulin, asparagin, tirozin, triptofan, arginin, fazeolin.	Qandli diabet, buyrak tosh kasalligida, revmatizm xar xil preparatlaridan.
28	Pisum sativum L.	Gorox. Burchoq.	Doni.	Oqsil, yog', kraxmal, tsellyuloza, mineral moddalar, karotin, vit-S,K,RR,V <sub>1</sub> ,V <sub>2</sub> , uglevodlar, shakar, K,Mg,Sa,R tuzlari.	Chipqonda, siydik haydovchi va siydik yo'llarini xar xal toshlardan tozalashda.
29	Platanus orientalis L.	Platon vostochniy. Chinor.	Novda qobig'i, bargi, ildizi.	Triterpenoidlar, betulin al'degidi,	Dizenteriya, rak, ichak yuqumli kasalliklarida,

				betulon va platon kislotalari, spirt, fenolkarbon.	ilon chaqqanida.
30	Populus alba L.	Topol' bely. Oq terak.	Qobig'i.	Uglevodlar, solitsin, populin, salikortin, salii-repozid, flavanoid, dubil' moddalar.	Isitima, podagra, revmatizm, gemmoroidal shishlarga, veterinariyada gijja haydashda.
31	P. ariana Dode	T. ariyskiy. To'rang'il.	Novda qobig'i.	Flavanoidlar, dubil' moddalar.	Terlatuvchi, issiqni tushuruvchi, mikroblar va toshlarni yo'qotuvchi dori sifatida.
32	Prunus sogdiana Vass.	Alicha. Olcha.	Mevasi.	Shakar, organik kislotalar, K/e,Su, Mg,So, karotin, vit-S, RR, V <sub>1</sub> .	Shamollashda, isitmalaganda qaynatmalari ichiriladi.
33	Pyrus communis	Grusha obilkn. Olmurut (nok).	Mevasi.	Shakar, organik kislotalar, fitontsitlar vit-A,V,S,	Yo'talga, tuburkulyozga, ich ketganda to'xtatish uchun.
34	Raphanus sativus	Redis posevnaya. Rediska.	Ildizmevasi.	Askorbin kislotasi, quruq moddalar, shakar, efir moyi, fitontsitlar vit-A,V,S,	Balg'am tushuruvchi, o't va siydik haydovchi, bronxit va yo'talda.
35	Robinia pseudacacia	Belaya akatsiya. Oq akatsiya.	Gullari, yosh novdalari.	Efir moyi, indol, benzil alkogol' metil efiri, antranil oksidi,	Yurak kasalliklarida, taxikardiya, nafas siqishi, gipertoniya,

					geliotropin, linalol.	miokard,aterosklerozda.
36	Salix alba L.	Iva belaya. Oq tol.	Novda qobig'i.		0,5% glikozid, salitsin, vit-s, 3,7-11,5% dubil' moddolari	Dizenteriya, revmatizm, tuburkulyoz, oshqozon ichak kasalliklarida.
37	Solanum melongena	Baklajan.	Mevasi.		7-10%quruq modda, shakar, oqsil, askorbin kislota, vit-RR.	Ateroskleroz, kam qonlilikda, yuqumli va ichak kasalliklarida.
38	Sorghum vulgare Pers.	Sorgo obikn. Jo'xori.	Doni.		Hali aniq tekshirilmagan.	Qadimda bosh va qorinda og'riq paydo bo'lganida bo'tqasidan.
39	Triticum aestivum L.	Pshenitsa myagkaya. Bug'doy.	Boshog'i, doni.		Organik moddalar, uglevodlar, yog'lar, kraxmal, oqsillar.	Bronxitda, jarohatlarda, yo'talda.
40	Ulmus pumila	Karagach. Qayrog'och.	Qobig'i.		Katexinlar, kempferol, kvvertsetin, astragalin, rubin flavanoidlari, karbon kislotalar.	Siydik haydovchi, bezgak kasalligida va yiringli jarohatlarda.
41	Zizyphus jujuba Mill.	Unabi obikn. Ilon jiyda.	Mevasi.		Vit-S, shakar, organik kislotalar, yog', karotin, rutin.	O'pka, qovuq, buyrak kasalliklarida, kam qonlilikda, nafas siqishida, jigar kasalliklarida hamda qon bosimini tushuruvchi dori sifatida.

### **2.3. Qoraqalpog'istondagi kamyob dorivor o'simliklar**

Atrof muhitni, o'simliklar olamini muhofaza qilish insoniyat uchun juda katta hayotiy ahamiyatga ega. Kishilar tabiatdan foydalanib, uning asrlar davomida tashkil topgan tabiiy manzarasini o'zgartirmoqda, unga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Sanoat tarmoqlari va qishloq xo'jaligining rivojlanib borishi va tabiiy maydonlarning keng miqyosda o'zlashtirilishi ekologik muvozanatning buzilishiga olib kelmoqda. Natijada o'simliklarning kamayib ketish xavfi tug'ilmoqda. Bu esa o'simliklar dunyosidagi genofondning kamayishiga sabab bo'lmoqda. Har qanday turning yo'qolishi uni tiklab bo'lmaydigan oqibatlarga olib keladi, binobarin, yovvoyi o'simliklar qishloq xo'jaligida ekiladigan madaniy navlarni barpo etishda manba sifatida juda katta rol o'ynaydi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi hududida hozir 1000 ga yaqin yovvoyi o'simlik turlari aniqlangan. Ular orasida jiddiy muhofazaga muhtoj ko'pgina kamyob, endem va relik turlar ham bor.

Qoraqalpog'iston hududidagi barcha endem turlarni asosan ikki guruhga: faqat Qoraqalpog'iston hududida o'suvchi o'simliklar-Qoraqalpog'iston endemlari hamda Qoraqalpog'iston va unga qo'shni bo'lgan hududlarda o'suvchi - to'liq emas Qoraqalpog'iston endemlari (subendemlar) deb ajratiladi.

Qo'shni hududlar bilan birga Qoraqalpog'istonda jami bo'lib 177 tur endem va subendem o'simliklar borligi aniqlangan. Shundan Qoraqalpog'iston endemlari 10 tur (umumiy floraning 1,14%) ni, subendemlari esa 167 tur (19,06%) ni tashkil qiladi.

Reliktlar - ma'lum hudud florasida qadimgi davrdan saqlanib kelayotgan o'simlik turlari hisoblanadi. Reliktlar flora tarkibida kam uchraydigan, cheklangan arealda tarqalgan, biroq qadimiy shakllangan bo'lib, hozirgi o'simliklar qoplamidan ajratilgan holatda bo'ladi.

Ustyurt va Sultonuvaystog'da qadimiy o'rta yer dengizi bo'ylarining kserofil tipidagi relikti Kandim sitnikoviy (*Calligonum junceum* Litv. - elak juzg'un) o'sadi. Amudaryo deltasida Golarktikaning qadimiy boreal florasining uchlamchi

davr reliktlari: Kuvshinka chisto-belaya (*Nymphaea candida* J.Presl. - oq-bo'ztuyatovon), Kubishka jeltaya (*Nuphar lutea* Smith. - sariqtuyatovon), Sal'viniya plavyuyayaya (*Salvinia natans* L. - suzuvchi salviniya), Ryaska malen'kaya (*Lemna minor* L. - kichik ryaska), Al'drovanda puzirchataya (*Aldrovanda vesiculosa* L. - pufakchali aldrovanda), Puzirchatka obiknovennaya (*Utricularia vulgaris* L. - oddiy puzirchatka), IIIitovnik bolotniy (*Dryopteris thelypteris* L. botqoq qirqqulog'i) o'sadi (T. Otenov va boshq., 1988-y.).

Tabiatga, o'simliklar dunyosiga nisbatan noto'g'ri munosabatda bo'lishga chek qo'yish, tabiat boyliklarini muhofaza qilish va ko'paytirish hammamizning asosiy burchimiz.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, atrof muhitni, hayvonot va o'simliklar dunyosini muhofaza qilishga alohida e'tibor berildi. 1992-yil 9-dekabrda «Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida», 1993-yil 7-mayda «Alohida muhofaza qilinadigan hududlar to'g'risida», 1997-yil 26-dekabrda «O'simliklar dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida» va nihoyat 1999-yilda «O'rmon haqida»gi qonunlar qabul qilindi. Bu qonunlar barcha o'simliklar turlarini saqlab qolish, ularni asrab-avaylash va muhofaza qilishda muhim hujjatlar hisoblanadi.

O'zbekiston «Qizil kitob»i 1979-yilda ta'sis etildi. «Qizil kitob» nabetot olamining kamyob, yo'qolib ketish xavfi ostidagi turlari haqida mukammal ma'lumot beradi. Uning vazifasi jamoatchilik va davlat idoralarini tabiat muhofazasi masalasiga jalb etishdan va turlar genofondini saqlab qolishga ko'maklashishdan iborat.

O'zbekiston florasining yo'qolib ketish xavfi ostida turgan 163 turi «Qizil kitob»ning 1984-yilgi nashriga kiritilgan va ushbu turlarning taqdiri bilan respublika mutaxassislari, olimlari muttasil shug'ullanib kelmoqdalar. Keyingi yillarda olib borilgan izlanishlar o'lkamiz florasidan yana ko'plab o'simlik turlarini «Qizil kitob»ga kiritish lozimligini ko'rsatgan. Shunday qilib,

1998-yilga kelib, O‘zbekiston «Qizil kitob»iga kiritilgan o‘simlik turlarining soni 301 taga etdi.

Qoraqalpog‘istonda uchrovchi turli tabiiy hududlarda o‘sadigan ayrim o‘simlik turlari ham bir qancha sabablarga, omillarga (Antropogen, biotik, abiotik) ko‘ra yo‘qolish havfi ostida qolmoqda. Ana shunday o‘simlik, dorivor o‘simlik turlarini saqlab qolish va ko‘paytirish shu kunning dolzarb vazifalaridan hisoblanadi.

Keyingi yillari ob-havoning keskin o‘zgarishiga sabab bo‘lgan Orol dengizi suvi sathining keskin qaytishi bilan kelib chiqayotgan noqulay ekologik sharoit ta‘sirida, inson omili ta‘sirida yo‘qolish havfi ostida turgan dorivor o‘simliklarning ayrim turlari “O‘zbekiston Qizil Kitobi” ga kiritildi va kiritilmokda. O‘simliklar yo‘qolishiga insonlar sababchi bo‘lishi bu ancha jiddiy hodisa hisoblanadi. Insonlarning o‘simliklarni yaxshi bilmasligi ko‘r-ko‘rona ishlari oqibatida ayrim dorivor o‘simlik turlari yo‘qolib ketishi havfi ostida qolgan.

Eng achinarlisi shundaki, o‘simliklarni yaxshi bilmaydigan kishilar turli yo‘llar bilan dorivor o‘simliklarni pullab boylik orttirish yo‘liga o‘tib olganlar. Ana shunday ishlar oqibatida yana iqlim ta‘sirida «Qizil kitob»ga kiritilayotgan o‘simlik turlari tobora oshib bormoqda. Quyidagi jadvalda biz siyrak uchraydigan o‘simlik turlarining ayrimlarini keltirib o‘tdik.



#### 4-jadval

### Qoraqalpog'iston hududida siyrak uchraydigan ayrim dorivor kamyob o'simlik turlarining qo'llaniladigan qismlari, kimyoviy tarkibi va ishlatilishi.

N <sup>o</sup>	Ilmiy nomi	Ruscha va mahalliy nomlari	qo'llaniladigan qismi	Kimyoviy tarkibi	Ishlatilishi
1	Adonis parviflora Fisch.	Goritsvet melkotsvetkoviy. Yonar gul yoki Sachiratqi.	3	4	5
1			O'simlik shirasi.	Flavanoidlar, 0,05-0,21%alkaloid, glikozidlar.	Xar lil ko'rinishdagi yurak kasalliklarida.
2	Amygdalus spinosissima Bunge	Mindal' kolyucheyshiy. Bodom.	Urug'i, mevasi.	Amigdalin, yog', glyukozid, vitamin, oqsil moddalar va saxaroza.	Nafas siqishi, o'pka ko'krak qafasi og'riganda, oshqozon ichak kasalliklarida.
3	Biebersteinia multifida Dc.	Bibershteyniya mnogorazdel'-naya. Qontepar.	Ildizi.	30% dubil' moddalar, saponin, alkaloid, kraxmal, tannin, 10-18% gacha shakar.	Ichdan qon ketishida va oshqozon kasalliklarida.
4	Brassica rapa L.	Repey golosemyanniy. Ochiq urug'li rapa (japiraq).	Urug'i, ildizi, bargi.	Vit-S, alkaloid, arktin glikozidi va qurituvchi yog'.	Revmatizm, kuloq oqishi (zalatuxa), ichni yurituvchi, teriva siydik ajratuvchi, yaralarga shishlarga qarshi.

5	Crambe edentula Fisch.	Katran kochi. Katran.	Urug'i, ildizi.	Tioglukozid hamda ko'p miqdorda yog'.	Nafas yo'llari va oshqozon kasalliklarida.
6	Ephedra L.	Xvoynik sredniy. Qizil tomir qizilcha.	Ko'k massasi.	0,5-1,5%efedrin, psevdoefedrin.	Revmatizm, podagra, tumor, bezgak va oshqozon kasalliklarida
7	Galium pamiroalaicum Robed.	Podmarennik pomiralayskiy. Pamiralay qizil bo'yoq o'ti	Poyasi.	Asperulozid glikozidi, efir moylari dubil' moddalar, limon kislotasi	Sariq, tutqanoq, nerv va oshqozon kasalliklarida.
8	Kochia prostrata (L.) Schrad.	Koxiya stelyushayasya. Yotog'on izeni.	yer ustki qismi.	Saponin, alkaloid, kumarin, flavanoid, dubil' moddalar.	Gijja haydashda va qon bosimini tushirishda.
9	Medicago falcata L.	Lytserna serpovidnaya. Sariq boshli sebarga.	Quritilgan o'simlik unidan.	Protein, vit-S,D, karotin, yog', azotsiz ekstrakt moddalar.	Qon oqishini to'xtatuvchi dori sifatida.
10	Nymphaea candida Presl.	Kuvshinka chisto belaya. Suv lolasi.	Hamma qismi.	Nimfein, nufarin alkaloidlari, dubil' moddasi, glyukoza, kul, kraxmal, anto- tsian, delfinidin, flavanoidlar, alkaloidlar vit-s, kempferol.	Dizenteriya, sariq, va o't kasallarida, ponosda.
11	Roemeria orientalis Boiss.	Ryomeriya vostochnaya.	Ildizi, bargi.	0,11-0,8%alkoloid, shundan 0,002-0,02%	Siydik haydovchi, yumshartuvchi, buyrak

		Sharq remeriyasi.			protopin, 0,002%remoredin.	tosh kasalligida, yiringli jarohatlarda, teri kasalliklarida
12	Rosa alba L.	Roza belaya. Oq na'matak.	Vit-S,RR,V <sub>1</sub> ,V <sub>2</sub> ,K va karotin.		Ateroskleroz,	Atterioskleroz, skarlatina, ko'k yo'tal, avitaminoz
13	Solanum ducamara L.	Paslyon sladko gorkiy. Achchiq ituzum.	Yosh novdalari va barglari		Solanin, vit-S, glyukoalkaloid, saloetsin, solenein, tannin, karotin, yog', shakar, glyukozid, dul'kamarin.	Revmatizm, nafas siqishi, gijjaga qar-shi, shishlarda, qichima, bronxit, shamollashda va siydik haydovchi dori sifatida.
14	Spergularia marginata (DC) Kiit.	Torichnik okaymlenniy. Irga o't.	yer ustki qismi		Spergula saponini, alkaloidlar va saponinlar.	Qaynatmasi qovuq tosh kasalligida.
15	Trichodesmum L.	Trixodesma sedaya. Trixodesma.	Ildizi.		Inkanin va ko'p miqdorda alkaloidlar.	Jarohatlarni va furunkulyozni davolashda.

### **3.BOB. DORIVOR O‘SIMLIKlardan OQILONA FOYDALANISH VA ULARNI MUHOFAZA QILISH**

Atrofimizni o‘rab turgan, biz kundalik xayotimizda uchratadigan, iste‘mol qiladigan, o‘z manfaatlarimizni qanoatlantirishda ishlatadigan tabiat ato qilgan bebaho ne‘matlarimiz, dorivor giyohlarimiz bizning himoyamizga va e‘tiborimizga muhtojdir. Binobarin biz ham tabiatni, o‘simlik dunyosini o‘z himoyamizga olmog‘imiz, ulardan maqsadli, oqilona foydalanmog‘imiz va parvarish qilmog‘imiz lozim. Buni insoniyat o‘z tarixida hamisha tushunib kelgan va qo‘lidan kelganicha uni saqlashga harakat qilgan.

Tabiatdan oqilona foydalanish va muhofaza qilish bo‘yicha ilgari chiqarilgan qator qarorlarda o‘simliklar dunyosini asrab avaylash va ko‘paytirish chora tadbirlari belgilab berilgan. Ammo bular kutilgandan kam natijalar berdi. Tabiatdan bilib-bilmay foydalanish, isrofgarchiliklar davom etaverdi. Shundan so‘ng hayvonlar, qushlar, baliqlar va nihoyat o‘simliklar muhofazasi uchun “Qizil Kitoblar” yaratildi.

Bizlar birgina o‘simlikni o‘z himoyamizga olish bilan avvalo er kurrasining chiroyini, uning go‘zalligini, turli-tuman shifobaxsh o‘simliklari-yu, orombaxsh giyohlarini himoya qilgan bo‘lamiz. Qolaversa, ulardan to‘g‘ri foydalanish bilan o‘zimizning sog‘lig‘imiz uchun juda katta foyda keltirgan bo‘lamiz. O‘simlikni himoya qilishning, undan tug‘ri foydalanishning muhim omili uning qaysi qismini qachon yig‘ib olishni bilishlikdadir. Shundagina u o‘z qimmatini va shifobaxsh hususiyatini saqlab qoladi. O‘simlikdan noto‘g‘ri foydalanish esa uning qayta o‘sib chiqmasligiga, natijada shu turning er yuzasidan yo‘qolib ketishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Respublikamizda talaygina sug‘oriladigan va sug‘orilmaydigan keng ekin maydonlari mavjud va bularning barchasida istalgancha dorivor o‘simliklar o‘sadi. Ular-ning

ba'zilari yovvoyi holda o'ssa, ayrimlari madaniylashtirilib ekinga aylantirilgan.

Dorivor, shifobaxsh madaniylashtirilgan o'simliklarni zaruriyatga qarab ekib, ko'paytirsang bo'ladi, ammo tabiiy holda o'sadigan o'simliklarni ko'paytirish biroz qiyin. Bu jarayon bizdan alohida vaqt, mehr-shafqat, aql-idrok bilan munosabatda bo'lishimizni talab etadi. Buning uchun esa milliy bog'lar, qo'riqxonalar sonini ko'paytirish, dorishunoslar to'garagi zarur.

Darhaqiqat juda ko'p o'simlik turlari shifobaxsh, ya'ni dori-darmonlik hususiyatiga ega. Xo'sh shunday ekan, ularning quvvat beruvchi kuchlari nimalarga bog'liq? Ulardan foydalanishda nimalarga e'tibor beriladi? Ushbu savollarga quyidagicha javob berish mumkin. O'simliklar shunday bir murakkab tuzilishga ega bo'lgan tabiiy laboratoriyalarki, soddadan g'oyat murakkab organik, biologik moddalarni aktiv ravishda sintezlaydi.

O'simliklardagi biologik faol moddalar soni, miqdori hamda sifati ularning shifobaxshlik hususiyatlarini, ya'ni dorivorlik qobiliyatini belgilashda eng muhim omillardan hisoblanadi.

Dorivor o'simlik xomashyolaridan dori-darmon tayyorlashda, ulardan foydalanishda farmakologik ahamiyatga ega bo'lgan oqsillar, yog'lar, efir moylari, saponinlar, flavanoidlar va boshqa faol moddalar muhim ahamiyatga ega. Bu moddalarning ayrimlari haqida quyida qisqacha ma'lumotlar bayon etishni lozim deb topdik.

**Alkaloidlar** o'simliklarning turli organlarida to'planadigan azot saqlovchi va ishqoriy hususiyatga ega juda murakkab organik birikmalardan tashkil topgan moddalardir. Bu moddalar o'ziga xos fiziologik ta'sirchanlik hususiyatiga ega. Alkaloidlardan morfin, papaverin, xinin, kofein, kodein kabi turlari turli xil dori-darmonlar ishlab chiqarishda xomashyo vazifasini o'taydi.

**Flavonoidlar** organik moddalarning geterotsiklik birikmalaridan tashkil topgan bo'lib, o'simlik organlarida asosan sariq bo'yoq (pigment) holda uchraydi, ba'zan glikozidlar, glyukoza, ramnoza, galaktoza va boshqa qand moddalari

ko'rinishida bo'ladi. Ular spazmalogik (siqilish) va balg'am ko'chiruvchi (tashlatuvchi) ta'sirga ega, yallig'lanish hamda o'n ikki barmoq ichak jarohatlarini davolashda yuqori samara beradi. Ayrim flavonoidlar-rutin va kvertsetinlar kapillyar tomirlarini mustahkamlash hamda qon tomir devorchalarini zichlantirish qobiliyatlariga ham ega bo'ladilar.

**Glikozidlar** o'simlik organlarida eng ko'p to'planadigan, juda ham murakkab tuzilishga ega bo'lgan moddalardan tashkil topgan. Ular namlik va fermentlar ta'sirida ikkiga parchalanadi, ya'ni qandli glikozid va qandsiz arlikan komponentlarga bo'linadi.

Glikozidlar inson organizmiga ta'sir etish hususiyatiga qarab yurak qon-tomir sistemasiga ta'sir etuvchi, terlatuvchi, achchiq saponinli glikozidlar va antraglikozidlarga bo'linadi.

**Saponinlar** o'simliklarning barcha organlarida bo'lib, ularning miqdori hamda sifati o'simliklarning rivojlanish davrlariga qarab o'zgarib turadi. O'simlik vegetatsiyasining oxirida ildiz hamda tugunaklarida saponin miqdori juda yuqori bo'ladi. Saponinlar ko'piruvchanlik hususiyatiga ega bo'lib, glikozidlar guruhiga kiradi. Ular gidrolizlanganda qand hamda saponinlarga parchalanadi.

Saponinlardan tayyerlangan dori-darmonlar tabobatda balg'am ko'chirish, siydik haydash maqsadlarida ishlatiladi.

**Efir moylari** o'simliklarning hamma organlarida to'planadigan bir qancha moddalarning murakkab birikmalaridan hosil bo'lgan, genetik jihatdan o'zaro uzviy bog'langan, uchuvchanlik hususiyatiga ega bo'lgan organik moddalar yig'indisidir. Efir moylarining komponentlariga uglevodorod, spirt, al'degid, keton, fenol, lakton, efir, xitin, kislota, azotli birikmalar va boshqa bir qancha moddalar kiradi.

Ba'zi efir moylari asosida tayyorlangan dori-darmonlar balg'am ko'chiruvchi, antitseptik, bakteriotsidlik hususiyatlariga ega bo'lsa, ayrim turlari inson organizmini sovutadi, tinchlantiradi. Kamfora moyida esa nafas olish hamda yurak ish faoliyatini qo'zg'atuvchanlik ta'sir kuchi mavjud.

**Vitaminlar**-tirik organizmlarning hayot faoliyati uchun juda zarur bo'lgan, kichik molekularli organik birikmalar. Ular tashqi muhit ta'siriga juda chidamsiz bo'lib, tez buziladi, parchalanadi hamda o'zining foydali xususiyatlarini yo'qotadi. Masalan, S, R, V<sub>1</sub>, V<sub>2</sub>, V<sub>6</sub>, RR, N va boshqa pentotent vitaminlar qaynagan suvda tez parchalanadi hamda shifobaxshlik xususiyatini yo'qotadi.

**A, K, D, e** vitaminlari yog'larda parchalanib, ta'sir quvvatini yo'qotadi.

**S, V, A** vitaminlari kislorod ta'sirida buziladi, V<sub>2</sub> vitamini esa nisbatan ta'sirorlarga chidamliroqdir.

Vitaminlar odam va hayvon organizmidagi fiziologik, biokimik jarayonlarning normal kechishini ta'minlaydi. Qon tarkibini doimiy saqlab turishda muhim ahamiyat kasb etadi.

**Bo'yoq moddalar.** O'simlik organlari turli pigmentlarni, ya'ni bo'yoqlarni saqlaydi. Ularga xlorofill, flonovid, antotsian, karotinoid va boshqalar kiradi.

**Xlorofill** yashil bo'yoq bo'lib, o'simlik organlarining yashil qismlarida uchraydi. Bu modda yorug'lik nurlari turli spektrlarini yutish layoqatiga ko'ra a, v, s tiplarga bo'linadi. Xlorofil molekulasining asosini magniyparfirin kompleksi tashkil qiladi. Xlorofill suvda parchalanmaydi, ammo yog'da parchalanadi.

**Antotsionlar** binafsha rangdan tortib, to qizil ranggacha bo'yoq ko'rinishini beradi. Ular flavonli glikozidlar hisoblanadi; gidrolizlanib, qand hamda aglikan-antotsianid-ga parchalanadi. Antotsianlar o'simliklarning guli, mevasi hamda urug'larida ko'proq bo'ladi.

Ilmiy meditsinada kvvertsetin va rutin moddalaridan tayyorlanadigan dori-darmonlar ko'proq qo'llaniladi. Ular yurak-tomir, qon ketish, oshqozon yarasi, qon bosimi oshishi kabi xastaliklarga qarshi ishlatiladi.

Tanid moddasi o'simlik hujayra shirasida erigan holda uchraydi. O'simlikning bargi, mevasi, po'stlog'i, ildizi hamda tuganaklarida to'planadi. Bu modda ilmiy medi-tsinada oshqozon ichak kasalliklarining oldini oluvchi bakteritsidli modda tariqasida ishlatiladi.

**Fitontsidlar** o'simlik organlarida to'planib, mikroorganizmlarni qirib yuborish hususiyatiga ega bo'lgan murakkab tuzilishdagi organik moddalardan hisoblanadi. Fitontsidlar alkaloid, efir moyi, antotsian ko'rinishida bo'lishi mumkin. O'simliklardan olingan fitontsidlar meditsinada antibiotiklar sifatida ishlatiladi. Ayniqsa, yuqumli kasalliklarni davolashda qo'llaniladi.

Shu narsani qayd etish lozimki, shifobaxsh o'simliklar tarkibidagi dori moddalar turli tumanligi sabab, inson organizmining funktsional sistemasi ish faoliyatiga har taraflama, ya'ni ko'p qirrali ta'sir (politrol) etish quvvatiga egadir.

Shifobaxsh o'simliklardan tayyorlangan dori-darmonlarning ustunlik tomonlari ham shundaki, u inson organizmida uchraydigan bir ikki uch va undan ortiq kasalliklarni davolashda faollik ko'rsatadi hamda ularni tuzatadi.

Xalqimiz orasida dorivor o'simliklar foydali, ularning zarari yo'q, qo'shimcha xastaliklardan holi, salbiy asoratlar keltirib chiqarmaydi degan fikrlar bor. Biroq bu fikrlar dorivor o'simliklardan mutaxassislar yordamida to'g'ri va oqilona foydalanilsa, bir turni ikkinchi tur bilan almashtirib yuborilmasa, o'simliklar rivojlanishi aniq davrlarga, yig'ishtirish mavsumiga, iste'mol etish usullariga to'la rioya qilingandagina to'g'ri bo'ladi va ulardan foydalanish yuqori samara beradi. Shunday ekan, dorivor o'simliklardan foydalanganda faqatgina yuqori malakali shifokorlarning, botanik-biolog mutahasislarning maslahatlari hamda ko'rsatmalariga amal qilish shart.

### **3.1. O'simlikning foydalanadigan qismi va ularni yig'ib olish vaqtlari**

O'simliklar o'z tarkibida ma'lum kasallikka shifo bo'la oladigan, kishi organizmiga qandaydir ta'sir ko'rsata oladigan biologik faol moddalar saqlaydi. Shu sababli ularning dorivor o'simliklar deb atalishi va tibbiyotda qo'llanilishi haqida aytib o'tgan edik. Mana shu biologik faol moddalar o'simlikning o'sish sharoitiga, o'simlik turiga qarab har qaysi organida turlicha



miqdorda to'planar ekan. Dori tayyorlash va bemorlarga berish uchun o'simliklarning ana shu faol moddalari ko'p to'plangan organlari qo'llaniladi.

Dorivor mahsulotlar tarkibida biologik faol moddalar ko'p to'plangan, ya'ni sifati oshgan davrda dori tayyorlanadi. Shunga ko'ra mahsulotlar o'simliklardan turli fasllarda yig'iladi va ular o'z qiymatini yo'qotmasligi uchun ma'lum tartibda quritiladi, aks holda o'simlik qismlari namlik va issiqlik ta'sirida qizib, tarkibidagi biologik faol moddalar parchalanadi, dorivor o'simliklar o'z qiymatini yo'qotadi. Shu sababli o'simlik qismlarini yig'ib olish vaqtiga alohida e'tibor berish lozim.

**Barglari**, odatda o'simlik gullashidan oldin yoki gullaganida juda ehtiyotkorlik bilan iloji boricha zarar etkazmasdan yig'ib olinadi.

O'simlikning yer ustki qismi (o'ti) o'simlik gullaganida poyasining eng tagidagi bargi oldidan o'rib olinadi. Bo'yi baland bo'lgan o'simliklarning esa poyasining tepa qismi (10-25 sm uzunligida) va shoxlari kesib olinadi.

**Kurtaklari** erta bahorda, o'simlik tanasida suyuqlik yura boshlagan vaqtda, ochilmasdan oldin yig'iladi. Kurtaklar odatda qo'l bilan terib olinadi yoki kurtakli shoxlari qirqib olinib, quritiladi va asta qoqib yig'ib olinadi.

**Po'stloqlari** ham erta bahorda, o'simlik tanasida suyuqlik yurishib, eg'och qismidan oson ajraladigan davrda poyasi bilan yo'g'on shoxlaridan shilinib olinadi.

**Gullari** o'simlik qiyg'os gullaganida alohida-alohida yoki mayda gullari bilan gulto'plamining hammasi kesib olinadi. Ba'zi gullarning faqat ayrim qismlari (gulto'j barg-lari yoki savatchadagi tilsimon gullari) yig'ib olinadi.

**Meva va urug'lari** to'liq pishib etilganida qo'l bilan terib yoki yog'och yordamida qoqib olinadi. Ko'pchilik o't o'simliklarning mayda meva va urug'laridan o'simliklari singari o'rib, xirmonda quritib, so'ngra yanchiladi va elpib yoki shamol yordamida ajratib olinadi.

**yer ostki organlari** (ildizpoyasi, ildizi, tugunagi va piyozlari) o'simlik o'zining o'sish davrini tugatib, uyquga kirgan vaqtida

kech kuzda yoki uyqudan uygʻonmasdan burun–erta bahorda, ketmon, oʻtkir tesha va boshqa asboblardan bilan kovlab olinadi.

Qazib olingan ildiz, ildizpoya va tuganaklar tuproqdan ajratib olinadi hamda savatchalarga solinib, oqar suvda yuviladi. Suvi selgigandan keyin esa maxsus maydonchalarga keltirilib saralanadi. Bunda albatta chirigan, qurt egan ildizchalar hamda boshqa oʻsimliklarning turli qoldiqlari olib tashlanadi. Soʻngra mahsus quritish maydonchalarida quritiladi. Shuni qayd etish lozimki, gullab turgan oʻsimliklarning er ostki qismlarini qazib olish man etiladi.

Oʻsimlikning *yer ustki qismini* havo ochiq vaqtida ertalabki shudring va nam koʻtarilgandan soʻng yigʻiladi. Aks holda gul va barg ustidagi nam quritish vaqtida oʻsimlik rangining oʻzgarib ketishiga, ularning sifati buzilishiga olib keladi.

Dorivor oʻsimliklarning yigʻilgan qismlarini toʻgʻri quritishni yoʻlga qoʻyish lozim. Aks holda ushbu mahsulotlarning tarkibidagi biologik faol moddalar parchalanib, dorivor oʻsimliklar oʻz shifobaxshlik hususiyatini yoʻqotishi mumkin.

Oʻsimliklarning guli, bargi, yer ustki qismi va kurtaklari soya va havo yaxshi oʻtib turadigan erda, biror narsaning ustiga (faner, brezent, karton qagʻoz va hakazo.) yupqa qilib yoyib quritiladi.

Oʻsimliklarning qolgan qismlari (mevasi, urugʻi, poʻstlogʻi, ildizpoyasi, ildizi, tunganagi va boshqalari.) ochiq joyda, oftobda quritiladi.

Dorivor oʻsimlik mahsulotlarining qanchalik quriganini quyidagicha aniqlash mumkin: yaxshilab quritilgan oʻsimlik ildizlari va poʻstloqlari qoʻl bilan egib koʻrilgan-da, ular egilmay sinishi lozim: barg va gullar barmoqlar orasida uvalanib ketishi, rezavor mevalar esa qurib qolganda kaftda qismlab koʻrilganda, mushtlashib, yopishib qolmasligi kerak.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, dorivor oʻsimliklarni belgilangan muddatda terib olmaslik, xomashyo tayyorlash va quritish qoidalariga rioya qilmaslik, tayyorlangan xomashyo sifatining pasayishiga, ularning tarkibidagi biologik aktiv moddalarning miqdori va sifatining oʻzgarishiga salbiy taʼsir

etadi. Ulardan tayyorlangan dori–darmonlar etarlicha ta’sir etish quvvatiga ega bo’lmaydi.

### **3.2. Dorivor o’simliklardan dori tayyorlash hamda foydalanish yo’llari**

Xalq tabobatida, shuningdek zamonaviy tibbiyot amaliyotida qo’llaniladigan aksariyat dori–darmonlar damlama, qaynatma, surtma, malham, shuningdek kukun holda ishlatiladi.

Xastalikning oldini olish yoki uni davolash maqsadida uy sharoitlarida shifokor tomonidan tavsiya etilayotgan shifobaxsh dori moddalarini tayyorlashda maxsus tartib va qoidalarga amal qilish zarur.

***Dorivor damlama.*** Odatda damlama ikki usulda tayyorlanadi. Dorivor o’simlik mahsulotining o’ziga xos hususiyatlarini inobatga olgan holda damlama qaynoq hamda sovuq yo’l bilan tayyorlanishi mumkin.

Uy-xona sharoitida qaynoq yo’l bilan damlama tayyorlash uchun dorivor mahsulot suvga nisbatan 1:10 yoki 1:20 hisobida olinadi.

Dorivor damlama tayyorlashda ro’zg’orda ishlatiladigan og’zi yopiladigan sirlangan, chinni yoki haroratga chidamli shisha idishlardan ham foydalanish mumkin.

Suv bilan dorivor mahsulot yaxshilab aralashgach, uning usti qopqoq bilan berkitilib, biroz hajmi kengroq idishga (kastryul) o’rnatiladi, bunda damlamali idish kengroq hajmli idishda og’ib ketishi yoki to’ntarilishiga imkon bermaslik tadbiri ko’riladi. “Suv hammomining suvi qaynashi 15–20 minut davom ettiriladi. “Suv hammomi” dan damlamali idish olinib, uy haroratida bir soat sovitiladi va bir necha qavat doka yoki bo’z mato bilan suzilib sharbati olinadi. Damlama miqdori belgilangan me’yordan kamayib ketgan taqdirda, qaynatib sovitilgan suv bilan me’yoriga etkaziladi.

Uy sharoitida ba’zan dorivor o’simlik mahsulotlaridan choy ko’rinishida damlama tayyorlash ham mumkin. Buning uchun mahsulot qaynoq suv bilan chayilgan sirli choynak ichiga solinib, uning ustidan qaynoq suv quyilib, qaynab ketishiga sharoit

yaratmay, engil alanga ustida 15 minut saqlab turiladi. So'ngra damlama sovutilib, suzib yoki choynakdan silkitilib olinadi.

Damlamani sovuq usulda tayyorlashda mahsulot ustiga belgilangan miqdorda qaynatib sovutilgan suv solinadi va 4–12 soat davomida “tindirib–damlab” quyiladi va suzilib, sharbati ajratib olinadi.

***Dorivor qaynatma.*** Qaynatma (atvor) aksariyat o'simlikning dag'al qismlaridan (ildiz, po'stloq, tuganak, g'uddalar) tayyorlanadi.

Qaynatma tayyorlash uchun yaxshilab maydalangan dorivor mahsulot sirlangan yoki chinni idishga solinadi va uning ustiga lozim ko'rilgan miqdordagi qaynoq suv solinib, engil alanga ustida 20–30 minut davomida qaynatiladi. Shundan so'ng uy sharoitida 10–15 minut sovutiladi. So'ngra qaynatma suzilib turupidan ajratiladida, kamayib qolgan suv miqdori qaynatib sovutilgan suv qo'shish bilan me'yoriga etkaziladi.

Uy sharoitida va umuman dorixonalarda tayyorlangan damlama va qaynatmalar ko'p saqlansa achishi, buzilishi mumkin, shu sababli ularni faqat iste'mol qilish oldidagina tayyorlagan ma'qul. Damlama va qaynatmalar iloji boricha salqin yoki sovuq (xolodil'nikda) joylarda 3 kun saqlanishi darkor. Maboda dorivor damlama va qaynatmalar saqlanish jarayonida rangini o'zgartirsa, ichida po'paksimon pardalar hosil bo'lsa, loyqalansa, ta'mi o'zgarsa, shuningdek, begona narsalar tushib qoladigan bo'lsa, bunday dorilarni ishlatib bo'lmaydi.

Uyda tayyorlanadigan dori-darmonlar va barcha preparatlar davolovchi vrach tavsiyasi bo'yicha va belgilab berilgan me'yorida iste'mol etilishi tavsiya etilishi lozim. Quvvatbaxsh, ishtaha ochuvchi, darmondorilarni ko'p iste'mol qilmaslik kerak.

Uy sharoitida dorivor omillar tayyorlanishida damlama hamda qaynatma tayyorlanish jarayonining belgilangan muddatidan oshirib yuborilishi xosiyatli o'simlik mahsulotlari tarkibida bo'lgan biologik faol moddalar tabiatining o'zgarib ketishiga sababchi bo'lishi mumkin.

Mabado, dorivor o'simliklardan shifobaxsh malham tayyorlanadigan bo'lsa, unda foydalanilayotgan o'simlik

mahsulotlarining maydalanish darajasiga ham katta ahamiyat berish lozim.

Agar o'simlik barglari, o'ti, gullaridan dorivor damlama tayyorlanadigan bo'lsa, kattaligi 5mm dan (barglari qalin bo'ladigan bo'lsa 1mm dan) oshmasligi kerak. Mabado, dorivor o'simlikning shoxchasi, po'stlog'i, ildizpoyasi ildizidan qaynatma tayyorlanadigan bo'lsa, u holda maydalanilgan mahsulot kattaligi 3mm bo'lishi lozim, o'simlikning meva va urug'larining kattaligi 0,5mm gacha bo'lishi talab etiladi.

### **3.3. Dorivor o'simliklarni muhofaza qilish**

Hozirgi vaqtda atrof muhitni, o'simlik va hayvonat dunyosini muhofaza qilish, shu bilan birga tabiiy yodgorliklarni avaylab asrash asosiy muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Bunga sabab shuki, inson tabiatni, uning turli o'simlik va hayvonlar jamoalarini, biotsenozlarini o'zgartirib yubordi. Shaxar va qishloqlarda zavod va fabrikalarning, qishloq-xo'jaligi turli tarmoqlarining har tomonlama rivojlanib ketishi, yangi-yangi yerlarning o'zlashtirilishi, yangi suv havzalarining barpo etilishi, ba'zi suv havzalarining qurib borishi tabiat ekologik holatining o'zgarib ketishiga olib kelmoqda. Bu esa o'z navbatida o'simlik va hayvonlar son va sifatining o'zgarishiga, tirik organizmlar ko'p resurslarining kamayib, hattoki yo'qolib ketishga olib kelmoqda.

Tabiiy sharoitda o'suvchi o'simliklar soninig kamayib ketishi ulardan tejamkorlik bilan foydalanilmaganligidan, xo'jalikning turli sohalarida rejasiz ishlatilishidan kelib chiqmoqda va natijada ularning maydoni, tabiiy holati qisqarib bormoqda.

O'simliklar dunyosidagi turlarni, ayniqsa kamyob daraxtlarni, butalarni va ko'p yillik o't o'simliklarni saqlash muhofaza qilish, tabiiy turlarga zarar keltiruvchilarga zaruriy chora ko'rish maqsadida O'zbekiston Ministrlar Soveti 1983-yilda "Noyob va yo'qolib ketish havfi ostida turgan yovvoyi o'simlik turlarini ijazatsiz yig'uvchilarga nisbatan ma'muriy javobgarlik haqida" gi farmonini qo'llash to'g'risida qaror qabul qilgan edi. Bu atrof muhitni, shu jumladan o'simliklar olamining

vakillariga e'tibor bilan qarab, ularni saqlab, noyoblarini muhofaza qilib, kamlarini ko'paytirish kerakligini ko'rsatadi.

Hozirgi vaqtda turli yerlarda ruhsatsiz dorivor o'simliklarni yig'uvchilar ishini to'xtatish va ularni javobgarlikka tortish kerak. Bo'z yerlarni o'zlashtirish, kanallar qazish va boshqa qurilish ishlarini Respublika tabiatini muhofaza qilish qo'mitasi va jamiyat kelishimi asosida amalga oshirish lozim.

Hozirgi kunda dorivor o'simliklardan tayyorlanayotgan dori-darmonlarga bo'lgan ehtiyoj sezilarli holda o'sib bormoqda. Bu birinchidan, dorixonalarimizda va kasalxonalarda dori-darmonlarning etishmasligi, tanqisligi, mavjud bo'lganlarining ham o'ta qimmat narxdaligi bilan, ikkinchidan, dorivor o'simliklardan tayyorlangan dorilarning ekologik jihatdan toza, kompleks ta'sir quvvatining kuchliligi, inson tanasiga zarar keltirmasligi, shuningdek boshqa xastaliklarni keltirib chiqarmasligi, tayyorlash jarayonining osonroq kechishi, iqtisodiy jihatdan arzon, nisbatan narxi-ning pastligi bilan bog'liq.

Shifobahsh giyohlarning alohida yoki turli yig'malarini dori-darmonlar tayyorlash uchun ishlatilganida ulardan to'g'ri va oqilona foydalanish lozim. Biologik hususiyatlarini hisobga olmaslik, yig'im-terimni belgilangan muddatda o'tkazmaslik, o'simlik turlarining yo'qolib ketishiga va boyliklarining qayta tiklanishiga o'z vaqtida ahamiyat bermaslik juda katta iqtisodiy hamda sotsial zarar keltirishi mumkin.

Dorivor o'simliklar boyliklarini qayta tiklash, asrab avaylash va muhofaza etish uchun quyidagi keltirilgan ba'zi bir muhim hisoblaniladigan shartlarni bajarish maqsadga muvofiq bo'ladi:

➤ o'simliklarning barcha belgi va hususiyatlarini yaxshi bilish;

➤ o'simliklarni sindirib, ildiz yoki ildizpoyasi hamda tuganaklari bilan sug'urib olmaslik;

➤ o'simliklarni ildizi yoki piyozlari tayyorlanayotgan bo'lsa, ularning hammasini qazib olmasdan, balki oralatib yig'ishtirish;

➤ urug'ini sut davrida, mevasi pishmasdan yig'ishtirmaslik;

➤ yetishgan urug' hamda mevalarni oxiriga qadar qoldirmasdan terib olmaslik;

➤ gullab turgan yoki urug'lagan o'simliklarni yalpi yig'ishtirmaslik; ularning 30–40 foizini qoldirish shart;

➤ yig'im–terim o'tkaziladigan maydonlarni har ikki besh yilda almashtirib turish;

➤ kasallangan hamda zararlangan o'simlik turlarini termaslik, ularga qarshi tadbiriy choralar ko'rish;

➤ noyob o'simlik boyliklarini saqlash maqsadida qo'riqxonalar tashkil etish, shu joylarda chorva mollarini boqmaslik hamda yem-xashakni o'rib olmaslik va hakazo.

Shifobaxsh o'simliklar xomashyosini ekologik jihatdan toza, zararlanmagan tabiiy maydonlarda o'sadigan hamda ekinga aylantirilgan yerlarda o'stirilgan o'simliklardan yig'ishtirish lozim.

Ana shu kabi tadbirlar hamda qoidalarga amal qilish zarur. Aks holda o'simlik boyliklari yil sayin kamayib ketaverishi hamda ulardan foydalanilganda ta'sir etish quvvati, dorivorlik hususiyatlari o'rniga salbiy ko'rsatkichlar namoyon etish ehtimoli mavjuddir.

Shu sabab yuqorida ko'rsatilgan shartlar, talablar qanchalik to'g'ri o'rinlanishi dorivor o'simliklar muhofazasida muhim ahamiyat kasb etadi.

## XULOSA

Qoraqalpog'istonda siyrak uchrovchi o'simliklar ko'p, endem va relik o'simlik turlari ham mavjud, jumladan B.Sagitov va T.Utenovlar (1990) ma'lumotiga ko'ra Qoraqalpog'istonda 96 ta kamyob o'simliklar turi keltirilgan.

P.Xalmuratov va Z.Dosjanova ma'lumotlaridan Qantepar, Qoratomir, Achchiq ituzum, Kaspiy ferulasi, Dubyan ferulasi va Qum do'lanasi kabi bir qancha kamyob o'simlik turlari «O'zbekiston Qizil kitobi»ga kiritilmay qoldirilgani ma'lum.

Hozirgi kunda insonlarning bilib bilmay dorivor o'simliklardan foydalanishi natijasida bir o'simlik turining boshqasi bilan almashtirib yuborish hollarini kuzatishimiz mumkin. Bunday hodisalar oqibatida turli xil salbiy holatlarning guvohi bo'lamiz. Agarda dorivor o'simlik mahsulotlari o'z o'rnida ta'sir quvvatini bilgan holda ishlatiladigan bo'lsa u nafaqat kasal a'zomizning balki zaiflashgan boshqada yana bir necha a'zolarimiz ishlarini ham yaxshilashi mumkin.

Dorivor o'simlik mahsulotlaridan uy sharoitida qaynatma va damlamalar tayyorlash bizga tayyor sintetik dorilarni sotib olishdan ko'ra bir muncha kam harajatroq bo'ladi. Shifobaxsh o'simliklarning bunday hususiyati bizga har taraflama ham ijtimoiy ham iqtisodiy tomondan foyda keltiradi. Shunday ekan dorivor o'simliklardan maqsadga muvofiq, oqilona foydalanishimiz talab etiladi. Quyida dorivor o'simliklardan foydalanish borasida o'z fikr va mulohazalarimizni tavsiya qilamiz.



## Tavsiyalar

Qoraqalpog'iston respublikasi Olimlarining ilmiy tekshirish ishlari natijalariga ko'ra bizning respublikamiz ham foydali o'simliklar zahirasiga ancha boyligi ma'lum. Ushbu foydali o'simliklar bir guruhini dorivor o'simliklar tuzadi. Bizda dorivor o'simliklarning ma'lum darajada zahirasi mavjudligiga qaramay ulardan to'g'ri va oqilona foydalanish chora tadbirlarini ishab chiqishimiz zarur:

Qoraqalpog'iston dorivor o'simliklarini bugungi kunda va kelajakda maqsadga muvofiq oqilona foydalanishda ekologik nuqtai nazaridan bizning fikrimizcha quyidagi masalalarga e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir;

*Birinchidan*, ushbu hududda sodir bo'layotgan ekologik holatlarning salbiy ta'sirlarini aniqlash va oldini olish;

*Ikkinchidan*, hozirda mavjud bo'lgan va amalda qo'llanilayotgan dorivor o'simlik turlarining tarqalish areallarini aniqlash va kengaytirish;

*Uchinchidan*, yo'qolish havfi ostida bo'lgan kamyob, endemik turlarni saqlab qolish, ko'paytirish va ekinga aylantirishga ko'proq e'tibor qaratishimiz kerak.

Dorivor o'simliklardan foydalanishda ko'proq quyidagi shartlarga rioya qilish talab etiladi:

1. O'simliklarning barcha hususiyatlarini yaxshi bilish, ularni bir-biridan to'g'ri ajrata olish;

2. Ishlatiladigan (yig'ishtiriladigan) qismlarini yig'ishtirib olish qoidalarini mukammal bilish, to'g'ri quritish natijada tabiiy toza mahsulot olish;

3. Kamyob siyrak uchraydigan o'simlik turlaridan kamroq foydalanish, bunday o'simliklar o'sadigan joylarda chorva mollarini boqtirmaslik, bunday joylarda qo'riqxonalar tashkil qilish.

Agarda ushbu masalalar amalga tadbiriq etilmasa dorivor o'simlik boyliklaridan uzoq vaqt va samarali foydalanish imkoniyatini yo'qotamiz.

## Foydalanilgan adabiyotlar

1. Давлетмуратов С., Утениязов К. Лекарственные растения Каракалпакии, применяемые в научной медицине. Нукус, "Каракалпакстан". 1990. -96 с.
2. Давлетмуратов С., Утениязов К. Халмуратов П. Халык медицинасында қолланылатуғын Қарақалпакстанның мәдений ҳәм жабайы өсимликлери. Нөкис, "Билим". 1992. - 132 б.
3. Давлетмуратов С., Утениязов К., Халмуратов П. Лекарственные растения Каракалпакии, применяемые в научной медицине (издание второе, исправленное и дополненное. Нукус, "Каракалпакстан". 2003. -100 с.
4. Dadaev X. Dorisiz davolash usullari. Toshkent, «Abu Ali ibn Sino». 2001. -40 b.
5. Ережепов С. Основные дикорастущие лекарственное растение Каракалпакии. Нукус, «Каракалпакстан». 1971. - 125 с.
6. Ережепов С. Ядовитие и вредные растения Каракалпакии. Нукус. «Каракалпакстан». 1975. -240 с.
7. Ережепов С. Флора каракалпаки, её хозяйственная характеристика, использование и охрана. Ташкент, «Фан». 1978. -260 с.
8. Zikiryoev A. Biologiyadan ruscha o'zbekcha izohli lug'at. Toshkent. «Qomuslar bosh tahririyati». 1993. -163 b.
9. Коровина О.Н., Бахиев А., Тажетдинов М.Т., Сарыбаев Б. Иллюстрированный определитель высших растений Каракалпакии и Хорезма. Ташкент, «Фан» Т. I. 1982. 216 с. Т. II. 1983. -216 с.
10. Nabiev M. Botanika atlas lug'ati. Toshkent. «Fan». 1969. - 256 b.
11. Никиточкина Т.Д. Лекарственные растения. М.: «Избирательное искусство». 1977. -64 с.
12. Otenov T., Sagitov B., Saliev J. Qaraqalpag'istannin qorg'awg'a tiyisli tabiiy osimlikleri. 1988.

13. Prator O'. P. va boshq. Botanika atamalarining ruscha o'zbekcha qisqacha lug'ati. Toshkent, «Fan». 1993. -68 b.

14. Utenov T., Tajetdinov M. Botanika terminlarining ruscha qaraqalpaqsha qisqacha tu'sindirme so'zligi. No'kis. «Bilim». 1991. -148 b.

15. Xolmatov H., Qosimov A. Ruscha-lotinch-a-o'zbekcha dorivor o'simliklar lug'ati. Toshkent. «Abu Ali ibn Sino». 1992. -200 b.

16. Xudoyberdiyev G', Nabiev M., Sobirov Yu. Shifobaxsh o'simliklarning stomatologiyada qo'llanilishi. Toshkent. «Abu Ali ibn Sino». 1995. -128 b.

17. Sherbaev B. Rasteniya Karakalpakstana. Nukus, «Karakalpakstan» 1982. 192 s.

18. Sherbaev B. Russko-Latino-Karakalpakskiy slovar' nazvaniy rasteniy. Nukus, «Karakalpastan». 1978. -90 b.

19. Sheraev B. Flora i rastitel'nost' Karakalpakii. Nukus, «Karakalpakstan». 1988. -304 b.

20. Ergashev A., Yarullin R. O'zbekiston tabiatidagi noyob biologik yodgorliklar. Toshkent, «O'qituvchi». 1995. -136 b.

21. Hojimatov Q., va boshq. Shifobaxsh giyohlar dardlarga malham. Toshkent, «O'zbekiston». 1995. -144 b.

22. Internet materiallari

## MUNDARIJA

<b>KIRISH .....</b>	<b>3</b>
<b>1.BOB. QORAQALPOG'ISTON FLORASINING O'RGANILISH TARIXI .....</b>	<b>6</b>
<b>2.BOB. QORAQALPOG'ISTONNING DORIVOR O'SIMLIKLARI .....</b>	<b>9</b>
2.1. Qoraqalpog'istonning tabiiy dorivor o'simliklari .....	10
2.2. Qoraqalpog'istonning madaniy dorivor o'simliklari ...	36
2.3. Qoraqalpog'istondagi kamyob dorivor o'simliklar .....	46
<b>3.BOB. DORIVOR O'SIMLIKLARDAN OQILONA FOYDALANISH VA ULARNI MUHOFAZA QILISH .....</b>	<b>52</b>
3.1. O'simlikning foydalanadigan qismi va ularni yig'ib olish vaqtlari .....	56
3.2. Dorivor o'simliklardan dori tayyorlash hamda foydalanish yo'llari .....	59
3.3. Dorivor o'simliklarni muhofaza qilish .....	61
<b>XULOSA va TAVSIYALAR .....</b>	<b>64-65</b>
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR .....</b>	<b>66</b>

Qaydlar uchun

Qaydlar uchun

*R.A. Eshmuratov, A.B. Ajiev*

# **QORAQALPOG‘ISTON DORIVOR O‘SIMLIKLARI**

Monografiya

«Tafakkur avlodi» nashriyoti, 2020

<b>Muharrir:</b>	Abdukamol Abdusalilov
<b>Texnik muharrir:</b>	Yunusali O‘rinov
<b>Badiiy muharrir:</b>	Zuxriddin Shoimov
<b>Musahhiha:</b>	Dilfuza Becnazarova
<b>Dizayner:</b>	Yunusali O‘rinov

Nash.lits. № **2013-975f-3e5e-d1e5-  
f4f3-8537-2366**, 20.08.2020-y.

Terishga 25.11.2020-yilda berildi. Bosishga 28.12.2020-yilda  
ruxsat etildi. Bichimi: 60x84 1/16. Ofset bosma. «Cambria»  
garniturasini. Shartli b.t. 4.18. Nashr b.t. 4.5.

Adadi 100 nusxa. Buyurtma №50.

Bahosi shartnoma asosida.

«Tafakkur avlodi» nashriyoti, 100190, Toshkent shahri,  
Yunusobod-9, 13-54. e-mail: tafakkur\_avlodi@mail.ru

«Tafakkur avlodi» MCHJ bosmaxonasida bosildi.  
Toshkent shahri, Olmazor tumani, Nodira ko'chasi, 1-uy.  
Telefon: +99890 000-33-93, +99833 002-33-93